

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH

**O‘ZBEK TILIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING TARIXIY
TARAQQIYOTI VA ME‘YORLASHUV OMILLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor (DSc) in Philological Sciences

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
по филологическим наукам**

Qo‘ziyev Umidjon Yandashaliyevich

O‘zbek tilida o‘zlashma so‘zlarning tarixiy taraqqiyoti va me‘yorlashuv
omillari 3

Kuziyev Umidjon Yandashaliyevich

Historical development and factors of standardization of borrowed words
in the Uzbek language 35

Кузиев Умиджон Яндашалиевич

Историческое развитие и факторы норматизации заимствованных
слов в узбекском языке..... 67

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 72

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH

**O‘ZBEK TILIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING TARIXIY
TARAQQIYOTI VA ME‘YORLASHUV OMILLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.DSc/Fil280 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Andijon davlat universiteti veb-sahifasining www.adu.uz hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Iskandarova Sharifa Madallyevna,
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nabiyeva Dilora Abduhamidovna,
filologiya fanlari doktori, professor

Abdiyev Murodqosim Bolbekovich,
filologiya fanlari doktori, professor

Saparniyazova Muyassar Yo'ldoshovna,
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «16» may soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy. Telefon/faks: 0(374) 223 88 30, e-mail: agsu_info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 170100, Andijon shahri, Universitet ko'chasi, 129-uy. Tel.: (374) 223 88 14.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «3» may kuni tarqatildi.
(2025-yil «3» may dagi 02/25 raqamli reyestr bayonnomasi).



A.Sh.Sobirov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

F.F.Usmanov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

D.A.Nurmanova,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida tilning tarixiy taraqqiyoti, lisoniy va nolisoniy omillarning o‘zaro uyg‘un munosabati, qarindosh va noqarindosh tillarning ta’sirida til me’yorlarining o‘zgarishi hamda takomillashuvi kabi muammolarga yanada jiddiy e’tibor qaratilmoqda. XX asr oxiridan globalizatsiya va millatlararo integratsiyaning o‘sishi oqibatida milliy tillarning kelajagi masalasi BMT hamda dunyo tilshunoslik markazlarining maxsus hisobotlari kun tartibiga qo‘yilmoqda. Bundan anglashiladiki, endilikda tillarning bir-biriga o‘zaro ta’siri hamda asliyatini saqlab qolish jarayonlari ijtimoiy, siyosiy va madaniy hodisa ekanligi, bu masalaga antropotsentrik nuqtayi nazardan yondashish ilmiy tadqiqotlarning muhim paradigmalardan biri ekanligi yaqqol oydinlashmoqda. Shu jihatdan, so‘z o‘zlashish jarayonlarida ichki hamda tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalar davlatning til siyosati, xalq tilining millat tili sifatidagi shakllanish bosqichida muhim omil bo‘lib, muayyan zarurat sifatida alohida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida intellektual va jismoniy migratsiya jarayonining faollashuvi, madaniy intervensiyalar sababli so‘z o‘zlashuvi hamda o‘zlashma so‘zlarni me’yorlashtirishga ehtiyoj ortib bormoqda. Global mehnat bozoridagi notenglik natijasida keng miqyosdagi immigrantlar oqimi davlat tiliga bo‘lgan ta’siri gibridizatsiya va metisizatsiya holatlarini keltirib chiqarishi alohida muammo bo‘lsa, ingliz tilining global miqyosda xalqaro tilga aylanishi, diniy va ijtimoiy tabaqaga mansublik jihatlari jamoalar nutqining farqlanishiga, muayyan tillarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda. Shuningdek, til jamoasining davlat tilidan foydalanish salohiyati va e’tibori, alifbo va imlo bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar, matbuot va ish yuritish hujjatlaridagi shakliy taqlid tufayli adabiy tilning rasmiy uslubi hamda umumxalq so‘zlashuv tilidagi farqlarning kengayib ketishi ijtimoiy davlatchiliklarda olib borilayotgan izchil va jiddiy islohotlarning to‘liq amalga oshish natijalariga ta’sir qilmoqda. Buning natijasida esa, jamiyat hayotida turli yangi iqtisodiy tarmoqlar – turizm, texnologiya, logistika, adliya, bank-moliya va boshqa ko‘plab sohalarning taraqqiy etishi bilan milliy tillarda yuz berayotgan keng so‘z o‘zlashuv jarayonini tartiblash, standartlashtirish, so‘z o‘zlashish omillarini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish, adabiy tilning sofligi va o‘ziga xosligini saqlab, rivojlantirib borish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

O‘zbek tilshunosligida ham so‘z o‘zlashtirish masalasi davriy va izchil ravishda tadqiq qilinmoqda. O‘zlashma so‘zlar har bir davr, tarixiy hamda adabiy manba misolida tahlil va tavsif etilgan bo‘lsa-da, sinxron planda ularni o‘z qatlam imkoniyatlaridan kelib chiqib o‘zbekchalashtirish, til sofligini saqlab qolish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berish va joriylantirish o‘z yechimini kutayotgan muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasida belgilangan «Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor

ahamiyat qaratishi»¹ borasida tilshunosligimiz oldiga qo'yilayotgan vazifalarni amalga oshirish uchun mamlakatimizda keng imkoniyatlar yaratilmoqda. O'zbek adabiy tilining nufuzini oshirish, uning barcha rasmiy, raqamli va ijtimoiy jabhalarda faolligi, qo'llanish qulayligini orttirish, o'zbek tilining ma'lumotlar bazasi, til korpusini shakllantirish, terminologik tizimni isloh qilish, lug'atlar tuzish orqali terminlar barqarorligini mustahkamlash kabi muhim vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi munosib ulush bo'lib qo'shiladi. Bu esa mavzuning dolzarbligi va zaruratini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash haqida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². O'zlashma so'zlar, ularning sof lisoniy, sotsiologiyaviy, madaniy tahlili bo'yicha ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Cambridge University, Salford University, University of London (Buyuk Britaniya), California University, University of New Mexico (AQSh), Zurich University (Shveysariya), Bamberg Universität, Humboldt Universität Zu Berlin (Germaniya), Royal Netherlands Academy of Arts and Science

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmoni./ <https://lex.uz/ru/docs/-4561730>

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://www.researchgate.net>, <https://scholar.google.com>, <https://www.umich.edu>, <https://www.istanbul.edu.tr>, <https://www.ankara.edu.tr>, <https://www.hu-berlin.de>, <https://www.wisc.edu>, <https://www.cambridge-centralasia.org> va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

(Gollandiya), Московский государственный университет имени М.В.Ломоносова, Омский государственный университет, Южный федеральный университет (Rossiya Federatsiyasi), İstanbul Üniversitesi, Hacettepe Üniversitesi, Ankara Üniversitesi, Anadolu Üniversitesi, Karadeniz Technical University (Turkiya), Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası Dilçilik İnstitutu, Bakı Dövlət Universiteti (Ozarbayjon), shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O'zbekiston Milliy universiteti, Farg'ona davlat universiteti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Jahon tilshunosligida turli yondashuvlar asosida so'z o'zlashuvining sof lisoniy qonuniyatlari bilan birga, turli ijtimoiy jarayonlar (immigratsiya, assimilyatsiya, tabulashish, sotsializatsiya), siyosiy o'zgarishlar (qochqinlar, kolonizatsiya, intervensiya, siyosiy tuzumning almashinishi), madaniy jarayonlar (diniy ta'sir, internet, musiqa va san'at), iqtisodiy munosabatlar (terminlashuv, determinizatsiya, branding, marketing) ta'sirida so'zlashuv nutqi, faol lug'atda yuz beradigan o'zgarishlar, substrat va superstrat hodisalari, muayyan fenomenning ijtimoiy qatlamlar nutqiga ta'siri, ijtimoiy tarmoqlar leksikasidagi jarayonlar, milliy til siyosatiga aloqador ustuvor masalalari ochib berilgan. Xususan, AQShda tilni standartlashtirish, bunda mafkura va milliy mansublikning o'rni, ikkitillilik muhitida o'zlashmalar persepsiyasi (Janubiy Kaliforniya universiteti, Nyu Meksika Universiteti), tilni rejalashtirish va unda lingvistik akademiyalarning o'rni, so'z o'zlashtirishning tillararo universal modellari (Pitsburg universiteti), morfologik paradigmalarning o'zlashish tamoyillari (Kaliforniya universiteti), morfologik jihatdan turli guruhga mansub tillarda so'z o'zlashishining fonetik-fonologik masalalari (Stoni Bruk universiteti), til islohotlari va davlatning til siyosati muammolari (Kembrij universiteti); Buyuk Britaniyada terminologik islohotlar, bunda o'zlashma terminlarni me'yorlashtirish (Salford universiteti), o'zlashmalarning fonologik moslashuvi va me'yorlashuvi (London universiteti), Niderlandiyada o'zlashma so'zlarning fonologik-semantik qabul qilinishi va singishi (Amsterdam universiteti); Germaniyada o'zlashma so'zlarni milliylashtirish, ikkinchi tilni o'qitishda o'zlashmalar fonetik va semantik tarkibi persepsiyasi, adabiy til me'yorlariga muvofiqlashtirish masalalari (Berlin universiteti), Turkiyada media tilidagi o'zlashmalarning korpus tahlili (Karadeniz texnika universiteti), Eronda tilning sofligini saqlash, lingvistik akademiyalar layoqati va nufuzini oshirish muammolari (Eron til instituti, Tehron) sof lingvistik hamda antropotsentrik nuqtayi nazardan tadqiq etib kelinmoqda.

Dunyo tilshunosligida so'z o'zlashuvini o'rganish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: o'zlashma qatlam shakllanishining ijtimoiy omillari, ijtimoiy-siyosiy muhit ta'siri, xalq ommasining chet so'zlar faollashuviga psixik moyilligi; ikkinchi tilni o'rganish jarayonida ona tilida chet so'zlarning fonetik, morfologik va semantik persepsiyasi muammosi; so'z o'zlashtirish jarayonining ijtimoiy va siyosiy oqibatlarini baholash; o'zlashma so'zlar ulkan oqimi shakllanishining ichki va tashqi omillarini belgilash, uning

bosqichlarini belgilash; o‘zlashmalar semantikasidagi madaniy va konseptual qirralarni tahlil etish; terminologik tizimda o‘zlashma qatlam ta’sirini kamaytirish, o‘z til imkoniyatlarini qayta baholash orqali o‘z qatlam salmog‘ini kuchaytirish choralarini ishlab chiqish, o‘zlashmalarni milliylashtirish va standartlashtirish; o‘zlashma so‘zlarning leksikografik tadqiqini amalga oshirish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida so‘z o‘zlashuvining til siyosati bilan munosabati masalalari M.Y.Trishe, M.Nahir, M.Bateyna, T.Holke, S.Hamann³, o‘zlashma so‘zlarning fonetik moslashuvi P.Bursma⁴, E.Brouzlou⁵, S.Devis⁶, I.Baginskaya⁷, M.S.Kolesnikova⁸, H.I.Iskender⁹, morfologik me’yorlashuv F.Gardani¹⁰, A.Bakus¹¹, L.Behrens¹², B.Bikel, J.Nikols¹³, J.Blevinslar¹⁴ tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Rus tilshunosligida A.V.Superanskaya¹⁵, O.S.Axmanova¹⁶, R.S.Kimyagarova¹⁷, D.S.Shmidt¹⁸, S.V.Gornostayev¹⁹ kabi olimlar o‘zlashma so‘zlarning

³ Triche M.Y. Kokugo and the “Nation” in Meije-era Japan: Language standardization, ideology, and national identity: Master degree dissertation thesis – Southern California University, 2012. 95 p.; Nahir M. Language academies, Language planning, and the case of Hebrew – University of Pittsburgh, 1973. 324 p.; Afrahi M. Language Policy: Iran. <https://pdfslide.us/education/language-policy-in-iran.html?page=11>; Bataineh M. Terminology planning: the contribution of the Jordan academy of Arabic, with special reference to medical terminology: Submitted in Partial Fulfillment of the Requirements of the Degree of Doctor of Philosophy – UK: University of Salford, June, 2011. 309 p.; Hall T.A., Hamann S. (2003). Loanword nativization in Modern Standard German as evidence for the phonological word // *Zeitschrift für Sprachwissenschaft* 22:56–85.

⁴ Boersma P. (1997). How we learn variation, optionality, and probability. *Proceedings of the Institute of Phonetic Sciences of the University of Amsterdam* 21:43–58; Boersma P. (1998). Functional phonology: formalizing the interaction between articulatory and perceptual drives. PhD. dissertation, University of Amsterdam; Boersma P., Silke H. (2008). The evolution of auditory dispersion in bidirectional constraint grammars. *Phonology* 25:217–270.

⁵ Broselow E. (2004). Language contact phonology: richness of the stimulus, poverty of the base. *Proceedings of the North-Eastern Linguistic Society* 34:1–22. Broselow E. Stress adaptation in loanword phonology: perception and learnability. In: Paul Boersma and Silke Hamann (eds.) *Phonology in perception*. Berlin: Mouton de Gruyter.

⁶ Davis S., Mi-Hui Ch. (2006). Phonetics versus phonology: English word final /s/ in Korean loanword phonology. *Lingua* 116:1008–1023.

⁷ Багинская И.Н. К проблеме ассимиляции заимствований (на материале англицизмов в русском языке). <http://isuct.ivanovo.ru/shcherba/trud/baginskaya.htm> 2000.

⁸ Колесникова М. С. Фонетическая ассимиляция иноязычных слов в со временном немецком литературном языке (на материале лексикографического анализа). – М., 1986. – 215 с.

⁹ Iskender H. (2015) The phonology of Arabic loanwords in Turkish: the case of t-palatalisation. PhD Thesis. SOAS, University of London.

¹⁰ Gardani F. On morphological borrowing // *Lang Linguist Compass* – №12 – Pp.1-17. Editor: University of Zurich, John Wiley and Sons Ltd. 2018. DOI: 10.1111/lnc3.12302

¹¹ Backus A. (2012). Paper 27: A usage-based approach to borrowability. *Tilburg Papers in Culture Studies*, 1–26.

¹² Behrens L. (1996). Lexical rules cross-cutting inflection and derivation. *Acta Linguistica Hungarica*, 43, 33–65.

¹³ Bickel B., Nichols J. (2007). Inflectional morphology. In T. Shopen (Ed.), *Language typology and syntactic description* (Vol. 3) (pp. 169–240). – Cambridge: Cambridge University Press.

¹⁴ Blevins J. P. (2016). *Word and paradigm morphology*. – New York: Oxford University Press.

¹⁵ Суперанская А.В. Написание заимствованных слов в современном русском языке // *Проблемы современного русского правописания*. – М.: Наука, 1964. – С.68-100

¹⁶ Ахманова О. С. Морфологическая структура слова в языках различных типов. – М.-Л., 1963. – 234 с.

¹⁷ Кимягарова Р.С. Типы и виды адаптации заимствованной лексики в русском языке нового времени (XVIII–XX вв.) // *Вестник Московского университета. Серия 9: Филология*. – М., 1989. – № 6. – С. 69-78.

¹⁸ Шмидт Д. С. Морфологическая адаптация новейших заимствований в системе русского языка: системно-грамматический аспект // *Вестник Омского государственного педагогического университета. Гуманитарные исследования*. 2023 – №1 (38). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/morfologicheskaya-adaptatsiya-noveyshih-zaimstvovaniy-v-sisteme-russkogo-yazyka-sistemno-grammaticheskiy-aspekt> (дата обращения: 13.05.2024).

¹⁹ Горностаев С.В. Грамматическая адаптация англоязычных заимствований сферы игровой индустрии в русском языке // *Изв. Южн. федер. ун-та: филологические науки*, 2017 – №1 – С.76-84.

turkumlashish holatlari (substantivatsiya, glagolizatsiya (verbalizatsiya), adyektivatsiya), jins kategoriyasining moslashishi kabilarga e'tibor qaratganlar.

Turkologiyada o'zlashmalar masalasi deyarli bir xilda dolzarblik kasb etadi. Zero, turkiy xalqlar o'tmishini umumiy tarix, ijtimoiy va lingvistik omillar o'zaro bog'lab turadi. Mavzuning turli jihatlari qozoq tilshunosligida L.Rustemov, Sh.Saribayev, Sh.Majitayeva, A.Niyazg'aliyeva, M.Jambilkizi, K.Koch, G.Kuzembayevalar²⁰; turk tilshunosligida Xalil Ibrohim Iskender²¹, M.Stachovskiy²²; chuvash tilshunosligida V.Yegorov²³, V.A.Ivanov²⁴, E.Fomin²⁵, qirg'iz tilshunosligida I.Batmanov, M.Koshuyeva²⁶; tatar tilshunosligida K.R.Galiullin, A.G.Yarullina, R.Sabirov, A.S.Zinina, E.Axunzyanov, M.Maxmutov, M.Xayrullin²⁷; xakas tilshunosligida A.D.Kaksin, M.Chertikova²⁸;

²⁰ Рустемов Л.З. Арабские и персидские заимствования в современном казахском языке. – Алматы, 1982. – 159 с.; Мажитаева Ш. К вопросу о заимствованиях в современном казахском языке // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Грамота, 2012 – № 2 (13). – С. 8-10; Сарыбаев Ш. Развитие лексики казахского языка в советскую эпоху, [в:] Қазақ тіл білімінің меселелери. Вопросы казахского языкознания. – Алматы, 2000. – С.106-120; Ниязгалиева А.Ә. Қазақ сөйленістеріндегі орыс тілінен енген сөздер: Филол. ... канд. ... дисс. – Алматы, 1993. – 51 б.; Zhambylkyzy M., Yessaly D. S. (2021). Текущее и будущее состояния заимствованных слов в казахском языке // Вестник КазНУ. Серия филологическая, 184(4). <https://doi.org/10.26577/EJPh.2021.v184.i4.ph3>; Коч К. Русские заимствования в южно-казахских диалектах казахского языка // Studia Slavica Savariensia 2013. 1-2. 266-272; Кузембаева Г. Қазақ тіліндегі кірме сөздер проблемалары // Вестник Института законодательства РК №4 (53) 2018 – Б.151-154.

²¹ Iskender H.I. (2015) The phonology of Arabic loanwords in Turkish: the case of t-palatalisation. PhD Thesis. – SOAS, University of London.

²² Stachowski M. (2012) Some features of the vowel adaptation of Arabic loanwords (along with a few remarks on their consonants) in an Ottoman 1911. Turkish dictionary by Arcangelo Carradori (1650) // Folia Orientalia – Pp.491-502.

²³ Егоров В.Г. Этимологический словарь чувашского языка. – Чебоксары: Чуваш. кн. изд-во, 1964. – 355 с.

²⁴ Иванов В.А. Прямые заимствования арабских и персидских слов в чувашском языке // Вестник Чувашского университета, 2017 – № 1. – С. 203-207.

²⁵ Фомин Э. В. Агнони́мы чувашского языка как объект научного изучения // Вестник Чувашского государственного педагогического университета им. И. Я. Яковлева. – 2013. – № 3 (79). – С. 174-177; Отрывки из словаря агнони́мов чувашского языка / Э. В. Фомин // Актуальные проблемы развития национальных языков и культуры народов Среднего Поволжья и Приуралья. – Чебоксары: Листок, 2013. – С. 176-181; Чувашские агнони́мы марийского происхождения / Э. В. Фомин // Языки, литература и культура народов полиэтничного Урало-Поволжья (современное состояние и перспективы развития). – Йошкар-Ола: Б. и., 2011. – С. 269-271; Чувашские агнони́мы татарского происхождения / Э. В. Фомин // В. В. Радлов и духовная культура тюркских народов. – Казань: Альянс, 2012. – С. 179-184; Материалы для словаря агнони́мов чувашского языка / сост. Э. В. Фомин. – Чебоксары: Пегас, 2013. – 258 с.

²⁶ Батманов И.А. Азыркы кыргыз тили / И.А. Батманов, Г. Бакинова, Ю. Яншансин. – Фрунзе: Кыргызокуупедмамбас, 1956 – 1-болук: Фонетика, лексика, диалектология. – 112 б.; Кошуева М. Заимствованные слова в кыргызской лексике // Эпоха науки, 2021 – №25. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zaimstvovannyye-slova-v-kyrgyzskoy-leksike> (дата обращения: 06.05.2024).

²⁷ Галиуллин К.Р. Проблемы комплексного лексикографирования заимствований (на материале ориентализмов/тюркизмов русского словаря) // Языковая семантика и образ мира. Книга 2. Казань: Изд-во Казан, ун-та. – 1997. – С.45-46; Яруллина А.Г. Заимствованная лексика в "Татарском энциклопедическом словаре": В русском и татарском изданиях: Дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2005. Манба: www.dissercat.com; Сабиров Р.А. Фонетико-графическая характеристика татаризмов в русских текстах и русизмов в татарских текстах: Дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2000; Зинина А.С. Развитие лексики татарского языка в условиях массового двуязычия: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Казань, 1997. – 32 с.; Ахунзянов Э.М. Русские заимствования в татарском языке. – Казань: Изд-во Казан. ун-та, 1968; Мэхмүтов М.И. Татар әдәби теленә кергән гарәп-фарсы элементлары./ Гарәпчә-татарча-русча алынмалар сүзлеге. Т.2. – Казан: Иман, 1993. – Б.793-853; Махмүтов М.И., Хамзин К.З., Сайфуллин Г.Ш. Арабско-татарскорусский словарь заимствований: В 2 т. – Казань, 1993; Хайруллин М.Б. Иноязычные слова в контексте Восток–Запад // Очерки об истории татарской культуры.– Казань: Фикер, 2001.

²⁸ Каксин А.Д. Динамичность в лексической сфере на разных этапах языкового развития (на примере хакасского языка) // Таврический научный обозреватель, 2016 – №9 (14). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dinamichnost-v-leksicheskoy-sfere-na-raznyh-etapah-yazykovogo-razvitiya-na>

boshqird tilshunosligida F.Fatxulina, I.Zubairova²⁹ kabilar tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

Bu tadqiqotlarning umumiy xulosalari: a) arabcha o‘zlashmalar oktyabr inqilobidan oldingi diniy muhit bilan bog‘liq ravishda ishlatilgan; 2) forscha so‘zlar savdo-aloqa munosabatlari hamda etnik aloqalar bilan bog‘liq holda kirib kelgan; 3) yevropacha so‘zlar kirishida rus tili va tilshunosligi akseptor va filtr vazifasini bajarib bergan; 4) 1991-yildan keyin sotsiolingvistik jarayonlarda til siyosati hamda ingliz tilining ta’siri alohida ahamiyatga ega bo‘lgan.

O‘zbek tilshunosligida so‘z o‘zlashishi yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan³⁰. Ularning ayrimlarida rus va Yevropa tillaridan kirgan o‘zlashmalar³¹, arabiy o‘zlashmalar³², forsiy o‘zlashmalar³³ga – so‘z o‘zlashtirishning hozirgi

primere-hakasskogo-yazyuka (дата обращения: 06.05.2024); Чертыкова М.Д. К проблеме иноязычной лексики в хакасском языке // International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 1-3 (88), 2024. – С.92-96

²⁹ Фатхуллина Ф. Р. Вхождение новых слов в лексику башкирского языка (на материале заимствований из индоевропейских языков) // Вестник Башкирск. ун-та, 2008 – №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hozhdenie-novykh-slov-v-leksiku-bashkirskogo-yazyuka-na-materiale-zaimstvovaniy-iz-indoeuropeyskih-yazykov> (дата обращения: 06.05.2024); Зубайрова И.Г. Заимствованные слова среди литературоведческих терминов башкирского языка // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2015 – №3 (45): в 3-ч ч.П. – С.87-89.

³⁰ Абдуллаев Ф.А. К некоторым вопросам лексики узбекского языка. – Труды ИЯЛ АН УзССР, I. – Ташкент, 1949; Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Тошкент, 1974 – 115 б.; Гулямова Н.Г. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 1985 – 112 с.; Кодирова Н.И. Семантико-стилистический анализ заимствований в узбекском и русском языках в новейший период 1991-2001 гг. (на материале газет и устной речи): Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2001. – 167 с.; Антонова О.П. Семантика узбекских заимствований русскоязычных художественных произведениях писателей Узбекистана: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1998. – 243 с. va boshq.

³¹ Миртов А.В. Лексические заимствования в современном русском языке из национальных языков Средней Азии. (Пособие для школьного преподавателя рус. яз.) – Ташкент-Самарканд: Учпедгиз. 1941 – 76 с.; Мирзаев М. Советско-интернациональные слова в узбекской периодической прессе (1945-1950): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1951, 16 с.; Пулатов А. Роль русского языка в развитии и обогащении словарного состава узбекского языка. – Ташкент, 1956. – 64 с.; Хамдамов Ж. Из истории русского лексического заимствования в узбекском языке (вторая половина XIX века): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1963 – 24 с.; Данияров Р. Заимствования русских интернациональных личных имён узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1967 – 42 с.; Гулямова Н.Г. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 1985 – 112 с.; Жуманиёзов А. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. – Тошкент: Фан, 1987. – 104 б.; Кодирова Н.И. Семантико-стилистический анализ заимствований в узбекском и русском языках в новейший период 1991-2001 гг. (на материале газет и устной речи): Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2001. – 167 с.; Абдураимова Ш.К. Теория заимствований и эволюция их варьирования в языке периодической печати (на материале русизмов прессы Сурхандарьинской области 1936-1990 гг.): Автореф. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1995 – 26 с.; Антонова О. П. Семантика узбекских заимствований русскоязычных художественных произведениях писателей Узбекистана: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1998. – 243 с.; Жуманазарова С. «Ўзбек тили изоҳли луғати» нинг янги нашрида герман тилларига хос сўзларнинг этимологияси. – Урганч, 2009. – 78 б.; Юсупова Г. «Даракчи» газетаси саҳифаларида учраётган герман тилларига хос сўзларнинг семантик хусусиятлари таҳлили. – Урганч, 2011. – 76 б.; Усманова З. Ўзбек сўзлашув тилида учровчи инглизча сўз ва иборалар. – Урганч, 2014. – 82 б.; Бекчанова Н. Ўзбек сўзлашув тилида учровчи немисча сўз ва иборалар. – Урганч, 2014 – 80 б.; Худойкулов А.Э. Рус ва ўзбек расмий хужжатларида инглизча ўзлашмалар (ўтмиш ва ҳозирги замон ҳолати): Филол. фанл. бўйича фалс. доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 56 б.; Исакова Н. Мустақиллик йилларида ўзбек тилига кириб келган хорижий сўзларнинг таркибий-мазмуний таҳлили («Халқ сўзи» газетаси материаллари асосида): Филол. фанл. бўйича фалс. доктори (PhD) ... дисс. – Самарканд, 2021. – 143 б.; Давлятова Э. Мустақиллик даври ўзбек тилидаги Ғарбий Европа ўзлашмаларнинг маданиятлараро тадқиқи: Филол. фанл. бўйича фалс. доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Термиз, 2021. – 58 б.; Рузметов С.А. Рус ва ўзбек тилларида ўзлашма сўзлар қўлланилишининг геронтологик жиҳати: Филол. фанл. бўйича фалс. доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Урганч, 2021. – 50 б. va boshqalar.

³² Абдуллаев Ф. Арабизмы в узбекском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1945; Абдуллаев Ф., Эшондадаев Д. Ўзбек тилида тожикча изофали бирикмалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973 – №1. – Б. 40-45; Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 159 б.; Юсупов М. Типы изафетных

o‘zbek tilining muayyan til bilan munosabatiga qaratilgan. Boshqalarida tilshunoslikning turli sohaları nuqtayi nazaridan tadqiqi kuzatiladi. Jumladan, A.G‘ulomov, A.Abdusaidova, E.Begmatov, A.Boboyev, M.Asomiddinova, A.Mamatov, N.Jiyanova, O.Jumaniyozov, G.Xodjayeve kabilar tomonidan o‘zlashma so‘zlar va til me‘yorlari masalasi³⁴, O.Usmonov, R.Doniyorov, S.Akabirov, K.Sharafiddinova, M.To‘xtaxo‘jayeva, L.Odinayeva, B.Hasanov, E.Fozilov, A.Madvaliyev kabi olimlar tomonidan o‘zlashma so‘z va terminlarning leksikografik tahlili va amaliyoti³⁵ muammolari atroflicha o‘rganilgan. Bevosita so‘z o‘zlashuvi, uning til lug‘at qatlamiga ta’siri, milliy ong va olamning lisoniy

конструкций в прозаических произведениях Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – 24 с.; Рахмонов Т. Ҳозирги ўзбек тилидаги арабча ўзлашма сўзлар семантик тузилишидаги ўзгаришлар: Филол. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994 – 120 б.; Эшонқулов Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида арабий луғавий ўзлашмаларнинг парадигматик ассимиляция муносабати: Филол. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 1996 – 132 б.; Зикриллаев Ғ. Истиқлол ва адабий тил – Тошкент, 2004. – 99 б.; Ҳасанов С. “Бобурнома” нашрларидаги арабий истилоҳлар таҳлили. – Тошкент, 2010 – 82 б.; Ҳасанова Д. Арабча луғавий ўзлашмаларнинг ўзбек тили номинатив ва дериватив тизимидаги ўрни: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 27 б.; Тўрахожаева А.Х. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг таракқиёти: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 26 б.; Казакбаева Г. Арабизмы в узбекском языке в прикладном и теоретическом аспектах: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2012 – 28 б.; Абдулқодир М. Процессы освоения арабской лексики в разноструктурных языках (на материале таджикского языка Таджикистана и узбекского языка Афганистана): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2016 – 28 б.; Рашидова Н.Б. Лексико-семантический анализ арабизмов сфере образования Узбекистана: Дисс. ... докт. филол. наук (PhD). – Ташкент, 2021. – 185 с. kabi.

³³ Решетов В.В. Лексический состав современной узбекской прессы // Проблемы языка. – Ташкент, 1934. – С. 41-51; Боровков А.К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. – Ташкент, 1940. – 103 с.; Боровков А.К. Таджикско-узбекское двуязычие и вопросы взаимовлияния узбекского и таджикского языков // Ученые записки Института востоковедения. Том IV. – М., 1952. – С. 15-19; Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Ташкент, 1974 – 115 с.; Зокиров М. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек-тожик билингвизмида намоён бўлиши: Филол. фанл. номз. ... дисс. – Фарғона, 2007. – 123 б.; Жўраев Ш.И. Билингвизм шароитида тожик ва ўзбек тилларининг лексик сатҳдаги ўзаро алоқалари (Самарқанд вилояти материаллари асосида): Филол. фанл. бўйича фалс. доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2018. – 47 б.; Zokirova S. Turli tizimli tillarda kongruentlik hodisasi: Filol. fanl. dokt. (DSc) ... diss. – Farg‘ona, 2022. – 233 b. va boshqalar

³⁴ Гуломов А. Адабий тил нормалари // Нутқ маданиятига оид масалалар – Тошкент: Фан, 1973 – Б.8-14; Абдусайдова А. Газета тили ва адабий норма. – Самарқанд, 1986. – 176 б.; Бегматов Э., Бобоев А., Асомиддинова М. Адабий норма ва нутқ маданияти. – Тошкент, 1983. – 155 б.; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1989. – 199 б.; Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. – Тошкент, 1997. – 95 б.; Бегматов Э., Жиянова Н. Нутқ маданияти асослари (маърузалар матни). – Тошкент, 2006. – 86 б.; Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси (Адабий норманинг шаклланиш ва яшаш қонуниятлари). III қисм. – Тошкент, 1999. – 150 б.; Бегматов Э.А. Собственный пласт лексики современного литературного языка: Дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1988. – 322 с.; Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари – Тошкент, 1991. – 274 б.; Жуманиёзов А., Ходжаева Г. Ўзлашмаларда норма ва кодификация. Монография. – Урганч, 2023. – 180 б.

³⁵ Усмонов О. Қисқача интернационал сўзлар луғати. – Тошкент: Ўздавнашр, 1959. – 250 б.; Усмонов О., Дониёров Р. Ўзбек тилидаги русча-интернационал ўзлаштира сўзлар изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1965 – 284 б.; Шарафутдинова К.А. Раскрытие значения слова в двуязычном словаре: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968. – 84 с.; Акабиров С. Лексикографическая разработка терминологии в двуязычных словарях: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1969. – 241 с.; Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан (XIX аср охири – XX аср бошлари) – Тошкент: Фан, 1981. – 320 б.; Тохтаходжаева М.Х. Двуязычные учебные словари и принципы их составления. – Ташкент: Укитувчи, 1981. – 182 с.; Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати (Э.И.Фозилов таҳрири остида). 4 жилдли – Тошкент: Фан, 1983; Адинаева Л.М. Приемы семантизации однокоренных слов в гнездовом толковом словаре русского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1989. – 23 с.; Ҳасанов Б.Р. Принципы составления рукописных словарей к произведениям Навои: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1989. – 42 с.; Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – 384 б. va boshq.

manzarasi masalalari³⁶ E.Begmatov, A.Hojiyev, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, N.Uluqov, O.Shukurovlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. E.Begmatov³⁷ ning adabiy normaga oid ishlarida o‘zlashma so‘zlar qatlami, ularning adabiy til me‘yorlariga muvofiqligi, A.Madvaliyev³⁸ tadqiqotlarida terminlarning o‘zlashmalik tabiatidan kelib chiqib, leksikografik tavsiflash, O.Shukurov³⁹ mustaqillik davri o‘zlashmalarining semantik xususiyatlari, S.Zokirova⁴⁰ dissertatsiyasida forscha o‘zlashmalarda kongruentlik hodisasi yoritilgan.

Shu bilan birga, keyingi yillarda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy integratsiya ta‘sirida chet so‘zlarning katta oqimi hech qanday vositachi til filtridan o‘tmasdan to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zbek tiliga kirib kelayotgani, tarjimachilikning taraqqiy etishi, xalqaro munosabatlar va ta‘lim tizimida ingliz tili mavqeining ortishi bilan xorijiy so‘z, chet so‘z, qo‘llanma so‘z, o‘zlashma so‘z tushunchalarini farqlash, ular o‘rtasidagi chegaralarni belgilash, bunda muqobillik (variantdorlik), standartlashtirilganlik, me‘yoriylik hodisalarini qayta tartibga solish muammosi yuzaga chiqmoqda. Keyingi vaqtlarda mamlakatimizda yetakchi tilshunoslarning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida mazkur muammoga tez-tez murojaat qilinayotgani⁴¹ ham tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «O‘zbek tilining sistem-struktur va antropotsentrik tadqiqi» mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlarning tarixiy taraqqiyot yo‘llari va til me‘yorlariga moslashuv jarayoniga ta‘sir etuvchi lisoniy va nolisoniy omillarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

so‘z o‘zlashishining lisoniy va ijtimoiy jarayon sifatidagi mohiyatini ochib berish va mazkur jarayonni davrlashtirish;

³⁶ Баскаков Н.А.К проблеме китайских заимствований в тюркских языках // Советская тюркология, 1987. – № 1 – С.69–75; Ҳожиёв А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. III жилдли. 3-жилд. Сўз ясалиши ва лексика. –Тошкент: Фан, 1988. – 172 б.; Маҳмудов Н. Сўз ўзлаштириш ва миллийлик // Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2007. – Б.138-159; Худойберганова Д. Замонавий ўзбек тилшунослиги терминологиясининг тараққиёт омиллари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2023, 4-сон – Б.13-17; Dadabayev N. Ogahiy tarixiy asarlari so‘z boyligida o‘zlashma qatlamning o‘rni // Oltin bitiglar, 2013 – №3 – В.38-53; Дадабоев Ҳ. Эски ўзбек тили обидаларида мўғулча сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986 – № 6 – Б.30-35; Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991 – 244 с.; Холманова З. “Бобурнома” лексикаси. – Тошкент: Фан, 2007 – 182 б.; Маҳмудов Р. Огаҳийнинг тарихий асарларида ўзлашмалар – Тошкент, 2022 – 260 б.

³⁷ Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. – Тошкент, 1997. – 95 б.; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1989. – 199 б.; Бегматов Э., Жиянова Н. Нутқ маданияти асослари (маърузалар матни). – Тошкент, 2006. – 86 б.; Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси (Адабий норманинг шаклланиш ва яшаш қонуниятлари). III қисм. – Тошкент, 1999. – 150 б.; Бегматов Э.А. Собственный пласт лексики современного литературного языка: Дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1988. – 322 с.

³⁸ Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – 384 б.

³⁹ Шукуров О. У. Ўзбек тили замонавий ўзлашмаларининг эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини масалалари (мустақиллик даври): Филол. фанл. докт. (DSc)... дисс. – 2022. – 255 б.

⁴⁰ Zokirova S. Turli tizimli tillarda kongruentlik hodisasi: Filol. fanl. dokt. (DSc) ... diss. – Farg‘ona, 2022. – 233 b.

⁴¹ Qarang: <https://t.me/nizomiddinmahmudov>; <https://t.me/yorqinjonodilov>

soʻz oʻzlashuvida va meʼyorlashuvida lingvistik akademiyalarning ijtimoiy-siyosiy institut sifatidagi oʻrnini ochib berish;

soʻz oʻzlashishi va meʼyorlashuvida lisoniy omillar, jumladan, oʻzbek tilining fonetik, morfologik hamda sintaktik qonuniyatlarining ahamiyati va taʼsirini koʻrsatish;

oʻzbek tilidagi oʻzlashma soʻzlarda yuz beradigan semantik oʻzgarishlar, jumladan, maʼno siljishi, maʼno zidlanishi (enantiosemiya), determinizatsiya kabi hodisalarning meʼyorlashuvini dalillash;

oʻzbek tilidagi izohli lugʻatlarda oʻzlashma soʻzlar talqinidagi oʻzgarishlarning sof ilmiy, ijtimoiy va madaniy sabablarini aniqlash;

oʻzbek tilida soʻz oʻzlashuvining sotsiolingvistik va lingvokulturologik qirralarini asoslab berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida oʻzbek tilining izohli lugʻati (2020), oʻzbek tili faol soʻzlarining izohli lugʻati (2001), fors-tojik, arab tillarining qomusiy tarjima lugʻatlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti etib chet soʻzlarning oʻzlashma soʻzlar sirasiga kirish jarayoni, ularning meʼyorlashuvi hamda omillari belgilab olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsiflash, tasniflash, etimologik, komponent, funksional-semantik, qiyosiy-tarixiy hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xorijiy va mahalliy olimlarning nazariy qarashlari asosida soʻz oʻzlashishida ajnabiy soʻz, chet soʻz, xorijiy soʻz, olinma soʻz, qoʻllanma soʻz, ekzotik soʻzlar, baynalmilal soʻzlar haqidagi fikrlar umumlashtirilgan, ularning bir bosqichdan ikkinchi amaliy qoʻllanish bosqichiga oʻtishi va meʼyorlashuvida integratsiya, ideologizatsiya, deideologizatsiya jarayonlarining taʼsiri nazariy jihatdan dalillangan;

soʻz oʻzlashuvida va meʼyorlashuvida muhim vosita sifatida davlatning til siyosati, xususan, lingvistik akademiyalarning ijtimoiy-siyosiy institut sifatidagi roli Turkiya, Eron, Misr, Isroil kabi davlatlar tajribalari asosida oʻrganilib, boshqa jahon tilshunoslik maktablarining til lugʻat fondi qamrovidagi etimologik, etnografik va madaniy belgilari, mazkur lisoniy leksik birliklarning voqelanish holatlari, qoʻllanilish koʻlami, ularning lugʻatlarda ifodalanish darajalari aniqlangan;

soʻz oʻzlashishida lisoniy omillar, jumladan, konvergensiya, divergensiya, reduksiya kabi fonetik hodisalar, alifbo va imlo qoidalari oʻzgarishining oʻzlashmalar variantlashuvi hamda meʼyorlashuviga taʼsiri; oʻzlashmalar tarkibida kirib kelgan morfologik vositalarning standartlashuvi hamda agglyutinativ tabiatli oʻzbek tilida muqobil variantlar «toʻqnashishi»; soʻz oʻzlashuvida nafaqat lisoniy birlik, shuningdek, lisoniy qolip (bu oʻrinda sintaktik qolip)larning kirib kelishi, «xususiyatlar hovuzi» (Feature pool) gipotezasi va buning oʻzbek tili lingvistik meʼyorlariga taʼsiri asoslangan;

oʻzbek tilidagi oʻzlashma soʻzlarda, jumladan, terminologiyada yuz beradigan semantik oʻzgarishlar, ularning umumisteʼmolga kirishi – determinizatsiyaga uchrash qoidalari; oʻzlashmalarning lugʻaviy tejamkorlik, metafora taʼsirida

qo'llanish doirasining kengayishi, torayishi, enantiosemiya hamda grammatikalizatsiyaga uchrashi, muqobil variantlarning uslubiy va semantik xoslanishi kabi hodisalar kuzatilishi dalillangan;

o'zbek tilidagi izohli lug'atlar asosida o'zlashma so'zlar talqinidagi o'zgarishlarning o'zbek tilining tub tabiatidan kelib chiqadigan sof ilmiy, jamiyat va ayrim ijtimoiy tabaqalarning qiziqish doirasi, madaniy jihati bilan bog'liq faollashuvi va nafaollashuvi kabi ijtimoiy sabablari ochib berilgan, ayrim ijtimoiy qatlam nutqiga xos chet so'zlarning sotsiolekt safidan me'yorlashgan o'zlashma so'zlar tarkibiga o'tish qonuniyatlarida bozor iqtisodiyotiga o'tish, axborot asri qadriyatlarining kirib kelishi, milliy o'zlikni saqlab qolishga intilish kabi sotsial hamda madaniy omillarning o'rni ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zlashma so'zlarning kirish, turlanish va singish jarayoniga oid doir material va xulosalar o'zbek tili tarixi hamda hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlarini shakllantirishda muhim ilmiy-nazariy ma'lumot berishi, uning nazariy asoslarini boyitishi amaliy jihatdan dalillangan;

«O'zbek tili leksikologiyasi», «O'zbek leksikografiyasi», «O'zbek tili terminologiyasi», «Semantika», «Sotsiolingvistika», «Lingvokulturologiya» fanlari bo'yicha yaratilajak darslik va qo'llanmalar, hozirgi o'quv hamda izohli lug'atlarning yanada mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

so'z o'zlashishida chet so'z, xorijiy so'z, olinma so'z, qo'llanma so'z, ekzotik so'zlar, baynalmilal so'zlar farqlanishi izohli lug'atlarda qayd etilishi, semantik maydonining barqarorlashuvi, morfologik shakllanishi bilan bog'liq me'yorlashishiga ko'ra amaliy jihatdan dalillangan;

so'z o'zlashuvida va me'yorlashuvida muhim subyekt sifatida davlatning til siyosati, jumladan, o'zbek tilining nufuzini oshirish bo'yicha hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning dolzarbligi va muammoga kompleks tarzda yondashilganligi lug'atlar, ilmiy tadqiqotlar tahlili asosida ochib berilgan;

o'zlashma so'zlarning me'yorlashuvi va standartlashuvi masalasiga oid materiallar, nazariy ma'lumotlar Yangi O'zbekiston yoshlari milliy ongini shakllantirish, ona tiliga hurmat va muhabbat bilan yondashish, davlat tilini o'qitish va uning amal qilishi borasida katta amaliy ahamiyat kasb etishi o'z tasdig'ini topgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chiqarilgan xulosalarning qat'iyligi, muammoning aniq qo'yilganligi, lingvistik tahlil metodologiyasi negizida shakllantirilgani, nazariy ma'lumotlarda birlamchi ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning asosiligi, metodologik jihatdan mukammalligi, tavsiflash, tasniflash, funksional-semantik, qiyosiy-tarixiy hamda statistik tahlil usullaridan samarali foydalanilgani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy qilingani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining **ilmiy ahamiyati** o'zbek tilining o'z va o'zlashma qatlamiga oid tushunchalarni kengaytirishi, chet so'z, neologizm, qo'llanma so'z, o'zlashma so'z, ekzotik so'z

kabi tushunchalarni farqlashga, binobarin, tilga kirib kelayotgan soʻzlarning meʼyorlashuv shartlariga oid nazariy fikrlarning mustahkamlanishiga, oʻzbek tilidagi izohli lugʻatlarning tarkiban va mazmunan boyishi hamda meʼyoriylik tamoyilining mustahkamlanishiga, shuningdek, hozirgi oʻzbek adabiy tili, oʻzbek tili leksikologiyasi, oʻzbek leksikografiyasi, oʻzbek tili tarixi, sotsiolingvistika, lingvokulturologiyaga oid tushunchalarni kengaytirishda muhim manba boʻlib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining **amaliy ahamiyati** oʻzbek tilida uchraydigan koʻplab xorijiy soʻzlarning oʻzbekcha muqobillarini topishda, davlat tilini oʻqitish amaliyoti boʻyicha maxsus kurs va seminarlar oʻtish, ixtisoslik fanlarini oʻqitish, «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» («Leksikologiya»), «Oʻzbek tili leksikografiyasi», «Oʻzbek tili tarixi», «Sotsiolingvistika», «Lingvokulturologiya» fanlaridan darslik va oʻquv qoʻllanmalari yaratishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oʻzbek tilidagi oʻzlashma soʻzlarning tarixiy taraqqiyoti va meʼyorlashuv omillarini oʻrganish boʻyicha olingan natijalar asosida:

soʻz oʻzlashuvida va meʼyorlashuvida muhim vosita sifatida davlatning til siyosati, xususan, lingvistik akademiylarning ijtimoiy-siyosiy institut sifatidagi roli Turkiya, Eron, Misr, Isroil kabi davlatlar tajribalari asosida organilib, boshqa jahon tilshunoslik maktablarining til lugʻat fondi qamrovidagi etimologik, etnografik va lingvomadaniy belgilari, mazkur lisoniy leksik birliklarning voqelanishi holatlari, qoʻllanishi koʻlami, ularning lugʻatlardagi berilish darajalariga oid xulosalardan Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan FA-F1-G003 – «Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional soʻz yasalishi» («Функциональное словообразование в современном каракалпакском языке») mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 25-iyundagi 250/1-son maʼlumotnomasi). Natijada oʻzlashma soʻzlar fonetik va morfologik tabiatining soʻz yasalishiga taʼsiri borasidagi qarashlarning ilmiy dalillar bilan boyishiga erishilgan;

soʻz oʻzlashishida lisoniy omillar, jumladan, konvergensiya, divergensiya, reduksiya kabi fonetik hodisalar, alifbo va imlo qoidalari oʻzgarishining oʻzlashmalar variantlashuvi hamda meʼyorlashuviga taʼsiri; oʻzlashmalar tarkibida kirib kelgan morfologik vositalarning standartlashuvi hamda agglyutinatib tabiatli oʻzbek tilida muqobil variantlar «toʻqnashuvi»; soʻz oʻzlashuvida nafaqat lisoniy birlik, shuningdek, lisoniy qoliplarning kirib kelishi, «xususiyatlar hovuzi» (Feature pool) gipotezasi va buning oʻzbek tili lingvistik meʼyorlariga taʼsiri asoslanganligiga oid xulosalardan Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan FA-A1-G007 – «Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida» mavzusidagi amaliy-ilmiy loyihada foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 25-iyundagi

250/1-son ma'lumotnomasi). Natijada maqol va matallar matnida qo'llanilgan o'zlashma til birliklari, ularning semantikasidagi o'zgarishlarni aniqlashga erishilgan;

o'zbek tilidagi o'zlashma so'zlarda, jumladan, terminologiyada yuz beradigan semantik o'zgarishlar, ularning umumiste'molga kirishi – determinizatsiyaga uchrash qoidalari; o'zlashmalarning lug'aviy tejamkorlik, metafora ta'sirida qo'llanish doirasining kengayishi, torayishi, enantiosemiya hamda grammatikalizatsiyaga uchrashi, muqobil variantlarning uslubiy va semantik xoslanishi kabi hodisalar kuzatilishi dalillanganligiga doir xulosalardan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialida 2021-2023-yillarda bajarilgan «O'zbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining 2024-yil 5-iyundagi 351 / 01-01 sonli ma'lumotnomasi). Natijada amaliy loyiha doirasida bajarilgan, til korpusi haqida olib borilgan tadqiqotlar ilmiy saviyasining oshishiga xizmat qilgan;

o'zbek tilidagi izohli lug'atlar asosida o'zlashma so'zlar talqinidagi o'zgarishlarning o'zbek tilining tub tabiatidan kelib chiqadigan sof ilmiy, jamiyat va ayrim ijtimoiy tabaqalarning qiziqish doirasi, madaniy jihati bilan bog'liq faollashuvi va nafaollashuvi kabi ijtimoiy sabablari, ayrim ijtimoiy qatlam nutqiga xos chet so'zlarning sotsiolekt safidan me'yorlashgan o'zlashma so'zlar safiga o'tish qonuniyatlarida bozor iqtisodiyotiga o'tish, axborot asri qadriyatlarining kirib kelishi, milliy o'zlikni saqlab qolishga intilish kabi sotsial hamda madaniy omillarning o'rniga doir xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «O'zbekiston teleradiokanali» DM tomonidan efirga uzatilgan «Ta'lim va taraqqiyot», «Adabiy jarayon» dasturlari ssenariylarini tayyorlashda (2023-2024-yillar) foydalanilgan, tadqiqot muallifi bilan o'zlashma so'zlar xususida suhbat tashkil etilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «O'zbekiston teleradiokanali» davlat muassasasining 05.11.2024-yil 04.36.1170-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek xalqi va millatining ma'naviy boyligi bo'lgan lug'at boyligimizni xalqimizga yaqindan tanishtirish, o'zbek tilini targ'ib qilish orqali ko'rsatuvning ilmiy-ommabopligi ta'minlashga, tilning milliy qadriyat sifatidagi nufuzini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjuman va seminar, jumladan, 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 229 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**O'zbek tilidagi o'zlashma so'zlarning tarixiy taraqqiyoti**» deb atalib, ikki fasldan iborat. Birinchi fasl «*So'z o'zlashishi – lisoniy va ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida*» deb nomlanib, unda tilning ijtimoiy, kumulyativ va funksional vazifalari, antropotsentrik yondashuv asosida til leksik qatlamini o'rganishning o'ziga xos jihatlari haqida so'z ketadi.

O'zbek tilida so'z o'zlashuvini davrlashtirishda yozma manbalarga tayanganimiz uchun ham chet so'zlarning kirib kelish davri ko'pincha manba topilgan hudud, madaniy mansublik va muallif bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Jumladan, Sharqiy Turkiston va Farg'ona vodiysidan topilgan yodgorliklar buddaviylikka oid diniy qo'lyozmalar bo'lib, O'rxun-Enasoy obidalariga nisbatan sanskritcha, hindcha va xitoycha o'zlashmalar ko'proq kuzatiladi. Shu jihatdan arabcha o'zlashmalar mavjud turkiy manbalar «Qutadg'u bilig», «Hibat ul-haqoyiq» asarlari islom tamaddunining eng sharqiy qismida yaratilgan bo'lib, o'sha vaqtdagi Samarqand, Buxoro, Shosh kabi ilmiy markazlardagi asarlar hali o'rganilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'zbek tilidagi so'z o'zlashuvi jarayonini mavjud manbalar asosida quyidagicha davrlashtirish mumkin:

1. Qadimgi turkiy til davri. Bu davrda xitoy, hind, sanskrit, tibet tillariga oid o'zlashmalar faol bo'lgan. M.Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Xorazmiyning «Muhabbatnoma», Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy» asarlarida *cherik, sart, roy* kabi sanskritcha so'zlar, *shad, xatun (xotin), ajun (ochun), kend* kabi so'g'diycha so'zlar, *baxshi, kug (kuy, musiqa), qam (shomon), loxtay (mato nomi), tegin (shahzoda), yabg'u, tarxan, xaqan, xan (mansab nomlari), yinju (inju), tug' (bayroq)* singari xitoycha so'zlar kuzatiladi⁴². Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan 26000 dan ortiq so'zlar orasida 70 ta so'zning asosini hindcha so'zlar tashkil qilgan⁴³.

2. Eski turkiy til davri. Mazkur davrda bevosita fors-tojik, keyinchalik arab tiliga mansub o'zlashmalarning keng miqyosda o'zlashtirilishi yuz berdi. Buning bir necha sabablari bor edi: turkiy xalqlarning islom diniga o'tishi, Markaziy Osiyoda hukm surgan somoniylar sulolasining davlat tili siyosati, aholi turmush tarzining ko'chmanchilikdan o'troqlashuvga o'ta boshlashi kabilar shular jumlasidandir. Forsiy va turkiy xalqlarning asriy qo'shnichilik munosabati, siyosiy munosabatlar ta'siridagi aralashuv natijasida forscha-tojikcha so'zlar ko'proq kasb-hunar, maishiy hayot bilan bog'liq leksikani tashkil etadi. Mahmud Koshg'ariy o'z

⁴² Дадабаев Х. Древние заимствования в системе общественно-политической и социально-экономической терминологии узбекского языка XI-XIV вв. // Адабий мерос, 3(57), 1991. – Б.46-53.

⁴³ Бафоев Б. Навоий тилида хиндча сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1991 – №4 – Б.38.

«Devon»ida ayrim turkiy qabilalar tili, jumladan, o'g'uzlar tili fors-tojik tili ta'sirida leksik o'zgarishlarga uchraganini yozadi⁴⁴. Bu ikki xalqning munosabatini tavsiflash uchun *Tatsız Türk bolmas, bashsız bo'rk bo'lmas* maqolini keltiradi. «Devonu lug'otit turk»da bir qancha o'zlashma forsiy so'zlar ham tavsiflanadi⁴⁵. Aytish mumkinki, bu davrda arabcha o'zlashmalar turkiy tilga to'liq singmagan, turkiy tafsir va ayrim didaktik asarlarda diniy-ma'rifiy terminlar sifatida qo'llangan.

3. Eski o'zbek tili davri fors-tojikcha va arabcha o'zlashmalarning badiiy adabiyotga, siyosatga, kundalik so'zlashuvga faol kirib kelishi bilan tavsiflanadi.

O'zbek tilshunosligida B.Bafoyev XIV-XV asrlar adiblari ijodi misolida o'zlashma so'zlar statistikasini amalga oshirgan. Bunda she'riy asarlardan 100 ta so'z tanlab olinib, o'rtacha qo'llanishlar soni berilgan⁴⁶. Unga ko'ra, sof turkiy so'zlardan foydalanish darajasi Lutfiy va Sakkokiy ijodida yuqori (74 % va 70 %), shunga mos ravishda ularda arabcha so'zlar 15 % atrofida, forsiy so'zlar 10 foiz atrofida qo'llangan. Arabcha o'zlashmalar eng ko'p qo'llangan asar «Qisasi Rabg'uziy» bo'lib, mazkur holat asarning diniy-ma'rifiy xarakterda ekanligi bilan tavsiflanadi. Ma'lum bo'ladiki, badiiy matnlarda arabcha o'zlashmalar salmog'i 15-26 foiz, fors-tojikcha so'zlar salmog'i 9-22 % ni tashkil etgan.

Hozirgi o'zbek tili bilan qiyoslaganimizda (3.1.4-jadvalga qarang), turkiy so'zlar qo'llanishida farq deyarli sezilmasligi (66 %), arabcha (23 % dan 11 % ga) va fors-tojikcha so'zlar (15 % dan 8 % ga) qo'llanishi esa kamayganini kuzatishimiz mumkin. Fors-tojikcha o'zlashmalar turkiy tilning barcha tematik guruhlari, barcha turkumlarda uchraydi. Ayniqsa, belgi ifodalovchi so'zlar, shuningdek, mavhum tushunchalarni ifodalovchi so'zlar katta salmoqqa ega. Fors-tojikcha o'zlashmalar miqdor jihatdan arabcha o'zlashmalardan ustunlikka ega.

4. Hozirgi o'zbek adabiy tilini shakllantirgan lug'aviy o'zgarishlar XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo'lib, XX asrning birinchi choragida yakunlangan. «O'zbek tili leksikasidagi bu o'zgarish XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoning chor Rossiyasiga qo'shib olinishi natijasida mamlakat hayotida yuz bergan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar hamda o'zbeklarning ruslar bilan bevosita aloqaga kirishuvlari bilan bog'liq edi»⁴⁷. Mazkur davr faol leksikasini o'rganish uchun O.Usmonov hamda Sh.Hamidovlar tuzgan glossariy asosida quyidagi statistik tahlil amalga oshirilgan:

1.1.2.-jadval

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o'zbek bosma nashrlarida qo'llangan so'zlarning etimologik-statistik tahlili

Tillar	O'zbek	Rus	arab	fors-tojik	Turk-ozarbayjoncha
So'zlar soni	658	991	304	166	27
Salmog'i (%)	30,7	46,2	14,2	7,7	1

⁴⁴ Кошғарий М. Девону луғатит турк. I жилд – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 65.

⁴⁵ Güner G. Dîvânü lugâti't-türk'te oğuzca olarak geçen künde "rezil, aşağılık" kelimesinin etimolojisi üzerine notlar // Gazi Türkiyat, Bahar 2015 / 16:15 – S.21. Manba: <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/1924039>

⁴⁶ Бафоев Б. Алишер Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б.12

⁴⁷ Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.3

Shuni ham qayd etish kerakki, glossariyda ruscha soʻzlarning turli variantlari bir necha bor berilgan boʻlib, shu nuqtayi nazardan ularning miqdori qariyb ikki barobar kamayishi mumkin: *gazet – gʻazit – gazit – gazita; polis – politsiya – falis – falisa* kabi. Bunda soʻzlarning nisbati oʻzbekcha soʻzlar – 40 %, ruscha soʻzlar 30,4 %, arabcha soʻzlar – 18,5 foiz, fors-tojikcha soʻzlar – 10,1 %, turkcha-ozarbayjoncha soʻzlar 1,6 %ni tashkil etadi. Bu davrda usmonli turk va ozarbayjon tillariga oid *sanjoq, qoʻmita, qoʻmondon, oʻrdu, olmon, boyqut* kabi soʻzlarning oʻzbek tili leksikasida muayyan nisbatda faollashuvi kuzatiladi.

Tahlil jarayonida maʼlum boʻldiki, ruscha oʻzlashmalar oʻzbek va fors-tojik tillariga deyarli bir xilda kirib kelgan, garchi asos sifatida oʻzbek tilidagi manbalar olingan boʻlinsa ham, oʻzlashmalarning variantlarida fors-tojik tilining fonetik qoidalari sezilib turgan oʻrinlar ham koʻp.

5. Istiqloq davri oʻzbek tili. Bu davr oʻzbek davlatchiligida mustaqillikka erishilganligi, til mustaqilligi, siyosiy va iqtisodiy erkinlik bilan bogʻliq ravishda Oʻzbekistonning jahon sahnasiga chiqishi, olamga tafakkuriy va maʼnaviy moslashuv davri hisoblanib, koʻplab inglizcha (umuman Yevropa tillariga oid) soʻzlarning ommaviy kirib kelishi bilan tavsiflanadi. Aytish joizki, german tillariga oid oʻzlashmalar shoʻro davrida ham mavjud boʻlgan, biroq bunda rus tilining fonetik, semantik va leksikografik vositachiligi aniq sezilib turgan. Oxirgi yillarda bitta oʻzlashmaning tub etimologik manbasi hamda rus tili taʼsirida imlo va talaffuzga singib qolgan variantlari solishtirish, shuningdek meʼyorlashtirish muammolari yuzaga chiqib kelmoqda. S.Muvfen⁴⁸ katta oqim boʻlib kirib keladigan chet soʻzlar garchi muqim oʻrnashib qolishi gumon boʻlsa ham, qabul qiluvchi tilning bir qancha leksik birliklarini siqib chiqarishini taʼkidlab oʻtadi⁴⁹. Bu haqida ishimizning keyingi boblarida batafsil toʻxtalib oʻtamiz.

Birinchi bobning ikkinchi fasli «*Oʻzlashmalar va lingvistik akademiyalar*» deb atalib, jamiyatning faol ziyolilar qatlami hamda til siyosatining muhim dastagi boʻlgan til akademiyalari faoliyati, ularning leksik yangilanishlarga taʼsiri yoritiladi. Bunday ijtimoiy-siyosiy omillar imlo, alifbo, til meʼyorlari bilan bir qatorda tilga yangi kirib kelgan soʻzlarni meʼyorlashtirish, muqobiliga almashtirish boʻyicha ham salmoqli ishlarni amalga oshishiga sabab boʻlgan.

Tildan tilga soʻz oʻzlashishi tilning ijtimoiy va oʻziga xos ichki qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Unga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Bizningcha ham, «tilning (nutqning) sofligi uchun kurashni umuman oʻzlashtirishlarga qarshi emas, balki oʻzga til leksemasini nokerak holda ishlatishga, oʻzga til hodisalaridan befarq foydalanish hollariga qarshi olib borish kerak»⁵⁰ boʻladi.

Til lugʻat qatlamini chet soʻzlardan tozalash, grammatik va fonetik qoidalarni meʼyorlashtirish masalasi deyarli har bir jamiyatda kuzatiladi, koʻpincha siyosiy hodisa sifatida hukumat tomonidan qoʻllab quvvatlanadi. Ayniqsa, Yaponiya⁵¹,

⁴⁸ Mufwene S.S. (2001). The ecology of language evolution. Cambridge: Cambridge University Press. <http://dx.doi.org/10.1017/CBO9780511612862>

⁴⁹ Qarang: https://mufwene.uchicago.edu/feature_pool.html

⁵⁰ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – B.111.

⁵¹ Triche M.Y. Kokugo and the “Nation” in Meije-era Japan: Language standardization, ideology, and national identity. Master degree Dissertation Thesis – Southern California University, 2012. – 95 p.

Isroil⁵², Eron⁵³, Iordaniya⁵⁴, Turkiya⁵⁵ davlatlari hukumati o'z vaqtida tilni globalizatsiya sharoitida qayta tiklash, alifbo islohoti, lug'atlar yaratishni tilshunoslar oldiga vazifa qilib qo'yganlar.

Italiyada Accademia crusca⁵⁶ (XVI asr) qo'mitasi, Rossiyadagi XIX asrda vujudga kelgan shishkovchilar va karamzinchilar, slavyanofillar va g'arbchilarning til bo'yicha tashabbuslari, Fransiyadagi neologiya sohasi va aynan neologizmlarni me'yorlashtirishga bag'ishlangan «La Banque des mots» jurnali⁵⁷, Germaniyada o'zlashmalarni milliyashtirish va me'yorlashtirish bilan bog'liq nazariyalar⁵⁸ dissertatsiyada tahlilga tortilgan.

O'zlashmalar masalasi o'zbek tilshunosligi doirasida ilk bor Mahmud Koshg'ariy, shuningdek, Alisher Navoiy, Abulg'oziy Bahodirxon, Is'hoqxon to'ra Ibrat, XX asrning 20-30-yillaridagi jadidlarning «Chig'atoy gurungi» tashkiloti faoliyatida chuqur nazariy va amaliy tahlil qilingan. Dissertatsiyada, shuningdek, A.Fitrat, M.Behbudiy, Elbek, A.Avloniy, A.Zohiriyning ushbu mavzudagi ishlari tadqiqqa tortilgan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, milliy davlatchilik tariximizda elxoniyalar (1277), Husayn Boyqaro (1469), Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg'oziy Bahodirxon, Xudoyorxon kabi siyosiy shaxslarning milliy tilni rasmiy doiralarda, badiiy va tarixiy asarlarda, shaxsiy yozishmalarda qo'llashi to'g'risida ayrim qaydlar uchraydi. Shunga qaramay, aynan davlat siyosati qay tarzda amalga oshirilgani to'g'risida tadqiqotlar yetarli emas. Dissertatsiyada, shuningdek, XX asrda o'zbek tili lug'at tarkibidagi o'zgarishlarning ijtimoiy xususiyatlariga ham to'xtalib o'tilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**So'z o'zlashishining lisoniy jihatlari**» deb nomlanadi, bunda so'zning fonetik, morfologik moslashuvida til ichki qoidalariga uyg'unlashuv xususiyatlari yoritilgan. Bobning birinchi fasli «*O'zbek tilidagi o'zlashma so'zlarning fonetik moslashuvi hamda me'yorlashuvi*» masalasiga bag'ishlangan.

So'z o'zlashtirish bir necha bosqichlarga bo'linadi, jumladan: 1) fonetik o'zlashtirish – so'zning o'zini qabul qilish (V.Pizani); 2) semantik o'zlashtirish – kalka, etimologik kalka, semantik kalka (V.V.Ivanov)⁵⁹. Shuningdek, chet so'zlar fonetik, grafik, leksik-semantik, grammatik va me'yoriy stilistik jihatdan o'zlashadi⁶⁰.

⁵² Nahir M. Language academies, Language planning and the case of Hebrew – University of Pittsburgh, 1973. – 324 p.

⁵³ Afrahi M. Language Policy: Iran. <https://pdfslide.us/education/language-policy-in-iran.html?page=11>

⁵⁴ Bataineh M.T. Terminology planning: the contribution of the Jordan academy of Arabic, with special reference to medical terminology: Submitted in Partial Fulfillment of the Requirements of the Degree of Doctor of Philosophy – UK: University of Salford, June, 2011. – 309 p..

⁵⁵ Aytürk İ. The First Episode of Language Reform in Republican Turkey: The Language Council from 1926 to 1931. // Journal of the Royal Asiatic Society, 2008, 18 (3): 278–283. doi:10.1017/S1356186308008511

⁵⁶ Будагов Р.А. Толковые словари в национальной культуре народов. – М., 1989. – С.11.

⁵⁷ Яруллина А.Г. Заимствованная лексика в "Татарском энциклопедическом словаре": В русском и татарском изданиях: Дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2005. Манба: www.dissercat.com

⁵⁸ Hall T.A., Hamann S. Loanword nativization in Modern Standard German as evidence for the phonological word // Zeitschrift für Sprachwissenschaft, 2003. 22:56–85.

⁵⁹ Гулямова Н. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 1985. – С.89.

⁶⁰ Пейсигов Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Высшая школа, 1975. – С.60.

O‘zlashma so‘zlarning fonetik moslashuvi xorijlik olimlardan P.Bursma, E.Brouzlou, S.Devis, I.Baginskaya, M.S.Kolesnikova, X.I.Iskender kabi olimlar ishlarida chuqur o‘rganilgan. O‘zbek tili fonetikasi masalasida H.Ne‘matov, Q.Mahmudov, M.Mirtojiyev va A.Abduazizovlar⁶¹ tadqiqot olib borishgan. Keyingi yillarda H.Jamolxonov⁶², D.Nabiyeva⁶³, I.Azimov⁶⁴, M.Zokirov, Z.Alimova⁶⁵ ilmiy izlanishlarida o‘zlashma so‘zlarning semantik va fonetik o‘zgarishlari yoritib berilgan.

Tilga o‘zlashish jarayonida bir qancha jarayonlar ro‘y beradi. Heygen o‘z tadqiqotida lisoniy o‘zlashmalarni bir tildan ikkinchi tilga ko‘chirib o‘tkaziluvchi model/nusxalar sifatida talqin qiladi. Mazkur o‘rinda olim ikkita hodisani farqlab beradi: importatsiya va substitutsiya⁶⁶. Importatsiyada o‘zlashmaning shakli donor tilga yaqin tursa, substitutsiyada buning aksi kuzatiladi. O‘zlashmalarning fonetik qurilishi, semantik xususiyatlari akseptor tilga kamroq o‘zgarish bilan kirib kelsa, importatsiya, aksincha, akseptor til so‘zning barcha jihatlarini o‘ziga moslab olsa, substitutsiya yuz beradi. Keyingi yillarda Pareto qonuniga asosan tildagi o‘z fonemalar qatorida 80/20 nisbatida o‘zlashma fonemalar ham joy olishini ilgari suruvchi nazariy qarashlar ham yuzaga keldi⁶⁷.

So‘zlar fonetik jihatdan donor tildagi tovushlarni akseptor til egalari tomonidan moslashtirilishi bilan o‘zlashtirish boshlanadi. Bunda so‘zning tovush tarkibi fonetik jihatdan emas, fonologik (tushunilish) jihatdan eng yaqin tovushlarga almashtiriladi. Bunda akseptor til egalari o‘zlashma so‘z tovushlarini ruhan his qilib, o‘zlaridagi fonemalar bilan almashtirishgan va fonetik tarkib saqlanmagan⁶⁸.

Odatda so‘zlar o‘z talaffuz shakli bilan o‘zlashadi, jumladan, unililarning o‘qilish sifati saqlanishi turkiy tillarga xos fonetik qonuniyatlarga mos kelmaydi. Turkiy tillarda urg‘u asosan oxirgi bo‘g‘inga tushadi, o‘zlashma so‘zlarda urg‘uli unli so‘z boshi va o‘rtasida kelganda talaffuzda bu unli urg‘usiz variantiga almashtirilib, urg‘u so‘z oxiriga ko‘chiriladi: *mehmon (mih/ymon), televizor*

⁶¹ Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. 2-нашр. – Тошкент: Университет, 2010. – 169 б.; Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Тошкент: “Ижод” нашриёт уйи, 2006. – Б.49; Неъматов Х. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 96 б. Миртожиев А. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 424 б.

⁶² Жамолхонов Х. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси – Тошкент: Фан, 2009. – 224 б.

⁶³ Набиева Д. Ўзбек тили сатҳларида диалектик категорияларнинг намоён бўлиши: Филол. фанл. докт... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 46 б.; Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик – хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши (монография). – Тошкент: Шарқ нашриёт матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2005. – 163 б.

⁶⁴ Azimov I.M.XX asr boshlarida o‘zbek tilshunosligining rivojlanish yo‘nalishlari: Filol. fanl. dokt. (DSc) ... diss. – Toshkent, 2024. – 249 b.

⁶⁵ Зокиров М.Т. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек-тожик билингвизмида намоён бўлиши: Филол. фанл. номз.... дисс. – Тошкент, 2007. – 148 б.; Зокиров М., Алимова З.Ўзбек тилидаги форс-тожикча ўзлашмаларнинг фонетик-лексик-семантик хусусиятлари. Монография – Фарғона: Classic, 2020; Зокиров М., Алимова З.Ўзбек ва тожик лисоний алоқаси асослари. Ўқув қўлланма. – Фарғона, 2021. – 148 б.

⁶⁶ Hamdi S.A. The Impact of Ideology on Lexical Borrowing in Arabic: A Synergy of Corpus Linguistics and CDA. PhD diss. at Educational Linguistics University of New Mexico – USA: Albuquerque, New Mexico December, 2018. – P.17.

⁶⁷ Ҳамроева Ш. 80/20 принципининг тил сатҳларидаги инъикоси. / “Тил. Адабиёт. Таълим” жамоавий монографияси. – Тошкент, 2024. – Б.69.

⁶⁸ La Charité D., Paradis C. Category preservation and proximity versus phonetic approximation in loanword adaptation // Linguistic Inquiry, 2005, 36(2) – P. 227.

(*tilivizir*). Hattoki rus tilidan kirgan *-ov, -yev* kabi shaxs nomi yasovchi grammatik shakllar ham o‘zbek tilida urg‘usiz talaffuz qilinadi⁶⁹.

O‘zbek tilining muhim belgilaridan biri – muayyan tildan kiradigan o‘zlashmalar uchun uchinchi til filtrining mavjudligidir. Jumladan, arab tili uchun fors tili, ingliz tili uchun rus tili shunday vositachilik vazifasini bajargan. Misol sifatida, *innovatsiya* (inglizcha «innovation») so‘zidagi *-siya* affiksi bevosita rus tili ta’siri natijasidir. O‘zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan o‘zlashmalar dastlab fors-tojik tili ta’sirida muayyan o‘zgarishlarga uchragan⁷⁰. Imloda variantlar saqlanib qolayotgani esa integratsiya jarayoni hali davom etayotganligini bildiradi⁷¹.

Bu o‘rinda tilda yuz beradigan konvergensiya va divergensiya hodisalariga to‘xtalib o‘tish joiz. Jumladan, «til sistemasida bir necha variant yoki invariant farqli birliklarning, jumladan, fonemalarning noo‘xshashliklari kuchsizlanishi va kamayishini ifodalovchi tarixiy jarayon struktur-diaxronik konvergensiya»⁷² deb atalib, ushbu tushuncha lingvistik termin sifatida Y.D.Polivanov (1928) hamda boshqa ma’nolarda R.O.Yakobson (1930) tomonidan ishlab chiqilgan. «Ma’lum tovushning tarixiy taraqqiyot natijasida birdan ortiq tovushga differensiyasi, ya’ni ma’lum tovush hisobida tilda yangi bir tovush hosil bo‘lishi divergensiya»⁷³.

O‘zbek tilining fonetik xususiyatlari o‘zlashma so‘zlar fonetik tarkibi o‘zgarishida yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Dissertatsiyada alifbo va yozuv tizimlarining almashinishi ham o‘zbek tilidagi o‘zlashmalar fonetik tarkibi turlicha qabul qilinishiga ta’sir qiluvchi omillar ko‘rsatib o‘tiladi.

Bobning ikkinchi fasli «*O‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlarning morfologik moslashuvi hamda me‘yorlashuvi*»ga bag‘ishlangan. So‘z o‘zlashtirishni nazoratga olish ayrim olimlar tomonidan sifat jihatiga ko‘ra «universal o‘zlashtirish»⁷⁴, ayrimlari tomonidan turli ijtimoiy munosabatlar natijasida yuzaga keladigan tizimli ta’sir natijasi⁷⁵ sifatida baholangan.

Morfologik o‘zlashmalar masalasi Shveysariyaning Syurix universitetida F.Gardani⁷⁶, A.Bakus⁷⁷, L.Behrens⁷⁸, Buyuk Britaniyaning Kembrij universitetida

⁶⁹ Ражабов Н. Ўзбек тилидаги ургусиз унлилар // Ўзбек тили ва адабиёти, 5-сон, 2012. – Б.89-94.

⁷⁰ Рубинчик Ю.А. Грамматический очерк персидского языка // Персидско-русский словарь. Т.2. – М., 1970. – С.860.

⁷¹ Фолланд Б. Французский заимствования в немецком языке: трансференция и интеграция на фонологическом, графематическом, морфологическом и лексикосемантическом уровнях // РЖ. – М., 1988 – №1. – С. 175.

⁷² [https://ru.wikipedia.org/wiki/Конвергенция_\(лингвистика\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Конвергенция_(лингвистика))

⁷³ Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. –Тошкент: Фан, 2013. – Б.273

⁷⁴ Harris A., Campbell L. Historical syntax in cross-linguistic perspective. – Cambridge: Cambridge University Press. 1995.

⁷⁵ Thomason S. Language Contact: An Introduction. – Washington D.C.: Georgetown University Press, 2001; Thomason S., Kaufman T. Language Contact, Creolization, and Genetic Linguistics. – Berkeley: University of California Press, 1988.

⁷⁶ Gardani F. On morphological borrowing // Lang Linguist Compass – №12. – Pp.1-17. Editor: University of Zurich, John Wiley and Sons Ltd. 2018. DOI: 10.1111/lnc3.12302

⁷⁷ Backus A. Paper 27: A usage-based approach to borrowability // Tilburg Papers in Culture Studies, 2012. – P.1–26.

⁷⁸ Behrens L. Lexical rules cross-cutting inflection and derivation // Acta Linguistica Hungarica, 1996, 43 – P.33–65.

B.Bikel, J.Nikols⁷⁹, AQShning Oksford universitetida J.Blevinslar⁸⁰ tomonidan o'rganib kelinmoqda. Rus tilshunosligida A.V.Superanskaya⁸¹, O.Axmanova⁸², R.S.Kimyagarova⁸³, D.S.Shmidt⁸⁴, S.V.Gornostayev⁸⁵ kabi olimlar o'zlashma so'zlarning turkumlashish holatlari (substantivatsiya, glagolizatsiya (verbalizatsiya), adyektivatsiya), jins kategoriyasining moslashishi kabilarga e'tibor qaratganlar.

O'zbek tilshunosligida rus tilidan o'zlashgan so'zlarning morfologik moslashuvi⁸⁶, Urganch davlat universitetida german tillaridan kirgan so'zlarning me'yorlashuvi⁸⁷, Toshkent davlat Sharqshunoslik universitetida fors tilidagi turkiy morfologik o'zlashmalar⁸⁸ tadqiq etilgan.

B.Grand o'zlashtirishda asosan leksik qatlam faolligini, grammatik qoida va hodisalar keyinroq o'zlashishini qayd etadi. O'zlashma so'zning morfologik jihatdan moslashuviga yunon tilidagi *-os*, lotincha *-um* qo'shimchalarining, hind-yevropa tillaridagi artikllar (*the, a, an, la, le, die, das*)ning tushirilishini misol sifatida keltirish mumkin. Artikllar aniqlik-noaniqlik, jins kabi tushunchalarni bildirib, o'zbek tilida grammatik kategoriya sifatida uchramaydi.

So'zlarning morfologik jihatdan o'zlashuvi borasidagi tadqiqotlar sirasida Haspelmat va Tadmorning «O'zlashmalar tipologiyasi» loyihasi (The Loanword Typology Project) alohida ko'zga tashlanib turadi⁸⁹. Bu loyihaning ikki muhim nuqtasi mavjud. Biri – turli tillardan olingan o'zlashmalar ma'nosi solishtirilgan ma'lumotlar ombori shakllantirilganligi, ikkinchisi – tillar o'zlashmalarining hissasiga ko'ra tasniflanganidir. Tadmorning ta'kidlashicha, sintetik tabiatli tillar so'z o'zlashuvi eng qiyin bo'lgan tillar hisoblanib, unda birinchidan fe'llarning o'zlashuvi qiyin bo'lsa, ikkinchidan boshqa turkumlar ham morfosintaktik qulay holatga keltirilishi kerak. Shu sababli sintetik tillarda otlarning o'zlashuvi nisbatan faolroq kechadi⁹⁰.

⁷⁹ Bickel B., Nichols J. Inflectional morphology / Language typology and syntactic description (Vol. 3) – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – P. 169–240

⁸⁰ Blevins J. P. Word and paradigm morphology. – New York: Oxford University Press, 2016.

⁸¹ Суперанская А.В. Написание заимствованных слов в современном русском языке. // Проблемы современного русского правописания. – М.: Наука, 1964. – С. 68-100; Суперанская А.В. Род заимствованных существительных в современном русском языке // Вопросы культуры речи. Выпуск 6. – М., 1965. – С. 44-58.

⁸² Ахманова О.С. Морфологическая структура слова в языках различных типов. – М.–Л., 1963. – 234 с.

⁸³ Кимьягарова Р.С. Типы и виды адаптаций заимствованной лексики в русском языке нового времени (XVIII–XX вв.) // Вестник Московского университета. Серия 9: Филология. – М., 1989 – № 6. – С. 69-78

⁸⁴ Шмидт Д. С. Морфологическая адаптация новейших заимствований в системе русского языка: системно-грамматический аспект // Вестник Омского государственного педагогического университета. Гуманитарные исследования. 2023 – №1 (38). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/morfologicheskaya-adaptatsiya-noveyshih-zaimstvovaniy-v-sisteme-russkogo-yazyka-sistemno-grammaticheskiy-aspekt> (дата обращения: 13.05.2024).

⁸⁵ Горностаев С.В. Грамматическая адаптация англоязычных заимствований сферы игровой индустрии в русском языке // Изв. Южн. федер. ун-та. Филологические науки, 2017 – №1 – С.76-84.

⁸⁶ Гулямова Н. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 1985; Бегматов Э. Ўзбек адабий тилининг мустақиллик даври ривожига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006 – №4 – Б.8-17 ва бoshq.

⁸⁷ Жуманиёзов А., Ходжаева Г. Ўзлашмаларда норма ва кодификация. Монография. – Урганч, 2023. – 180 б.

⁸⁸ Джафаров Б., Арифджанов З. Форс тилидаги туркий ўзлашмаларнинг морфологик мослашуви // Шарқ машъали, ОТ. 2022 – №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fors-tilidagi-turkiy-zlashmalarning-morfologik-moslashuvi> (дата обращения: 17.04.2024).

⁸⁹ Haspelmath M., Tadmor U. Loanwords in the world's languages: a comparative handbook. – Berlin: Walter de Gruyter, 2009.

⁹⁰ Tadmor U. Loanwords in the world's languages: Findings and results / Loanwords in the World's Languages: A Comparative Handbook. – Berlin: Walter de Gruyter, 2009. – P.55–75.

Soʻzning morfologik oʻzlashtirilishida quyidagi jihatlar ahamiyatga ega hisoblanadi:

1. Qurilishi mosligi, qismlari oʻrtasidagi munosabatning oʻxshashligi, soʻz tartibining saqlanishi.

2. Til birliklari mushtarakligi, yaʼni birikmaning birikmaga, soʻzning soʻzga, affiks turlarining oʻxshashligi tufayli koʻchishi.

3. Boʻsh oʻrinni toʻldirishi, yaʼni oʻzlashma morfema oʻziga xos vazifani bajarib, akseptor tilda bunday vazifa uchun alohida morfemaning yoʻqligi.

4. Morfologik jihatdan oʻzgarish.

5. Konvergensiya, yaʼni donor tildan oʻzlashgan soʻz tarkibidagi morfemaning oʻz farqlovchi belgisini yoʻqotib, oʻzak tarkibiga kirib ketishi yoki ortiqcha qism sifatida saqlanib qolishi.

Bir oʻzakka bir necha yasovchi qoʻshimchalar qoʻshish orqali hosil qilingan sinonimlar masalasida turli xil qarashlar mavjud. Jumladan, R.Sharopova *siyosatchi, siyosatdon, siyosatshunos* kabilarni variant terminlar deb hisoblaydi⁹¹. F.Musayeva esa bu kabilarni sinonimlar deb qayd etadi⁹². Bizning fikrimizcha, agar yasovchi qism qoʻshilganidan soʻng soʻzning qoʻllanish sohasi, uslubida farqlar sezilsa, ular sinonimlik darajasiga koʻtariladi. Masalan, *siyosatchi* – siyosat bilan shugʻullanadigan odam, *siyosatshunos* – siyosiy jarayonlarni oʻrganadigan mutaxassis, *siyosatdon* – maishiy hayot va rasmiy ishlarni yuritishda qonun-qoidalarni oʻrganib, qattiq rioya qiladigan, boshqalarni ham majbur qiladigan shaxs. Demak, soʻzlar variantlilik holatida emas.

Turli tadqiqotlarda oʻzlashma soʻzlarning til leksikasidagi salmogʻi muayyan qonuniyatlarga boʻysunadi, jumladan, Pareto qonuniyatiga koʻra leksik tizimning barcha qismlari 80/20 tamoyili asosida mavjud boʻladi, bu salmoqning oʻzgarishi tilning grammatik qonuniyatlariga ham taʼsir qiladi degan fikr mavjud⁹³.

Izohli lugʻatlarda ayn. (aynan) qisqartmasi bilan ishora beriladigan ayrim soʻzlarda sinonimlik aniq sezilib turadi: *beziyon* – *bezarar* kabi. Bu oʻrinda variantlilik sinonimlik uchun boshlangʻich nuqta vazifasini bajaradi.

Oʻzlashma qisimli soʻzlar tildagi tejamkorlik tamoyiliga boʻysunib, keyinchalik bir qism ikkita qism ifodalash vazifasini bajaradi: *foto* – *fotografiya*; *xala* – *xalachoʻp*; *takya* – *takyaxona*; *xarsangtosh* – *xarsang* kabi.

Oʻzlashma soʻzlarning lugʻaviy mustaqilligi yoʻqoladi, affiksoidlarga aylanadi, keyingi bosqichda esa a) bu affiksoid tushiriladi: *aslahaxona* (*esk.*) – *arsenal* – *qurol-yarogʻ ombori*; *omborxonona* – *ombor*; *manqaldon* – *manqal*; b) affiksoid affiksga almashtiriladi.

Oʻzlashma soʻzga qoʻshilgan yasovchining oʻzi ortiqchalik qiladi: *fitna* – *fitnachi, fitnagar, fitnakor*; *fisq-fasod* (*fitna-fasod*) – *fisq-fasodchi* (*fitna-fasodchi*; *changanzor* – *changan* kabi.

⁹¹ Шаропова Р. Терминологияда вариантдорлик // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. – №1. – Б.34-37.

⁹² Мусаева Ф. Ўзбек тилида вариантlilik // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. – №6. – Б.21-26.

⁹³ Хамроева Ш. 80/20 принципнинг тил сатҳларидаги инъикоси. / “Тил. Адабиёт. Таълим” жамоавий монографияси. – Тошкент, 2024. – Б.71-72

O‘zlashma so‘zlarning me‘yorlashuvida so‘z yasovchi qo‘shimchalar, ayniqsa, ot yasovchi *-chi*, *-lik*, sifat yasovchi *-li* qo‘shimchalari faol.

Quyidagi jadvalda ularning o‘zlashma shakllar o‘rnini bosa olish imkoniyatlari berilgan:

2.1.1-jadval

-lik qo‘shimchasining o‘zlashma affikslar bilan muqobillik holatlari

Qo‘shimcha	O‘zlashma morfema	Variantlar
-lik (ot yas.)	-xona	<i>konsullik – konsulxona, vakillik – vakolatxona</i>
	-iat	<i>komissarlik – komissariat</i>
	-iyat	<i>mas‘ullik – mas‘uliyat, milliylik – milliyat, nisbiylik – nisbiyat, rahbarlik – rahbariyat</i>
	-itet	<i>neytrallik – neytralitet</i>
-lik (sif. yas.)	-bop	<i>paltolik – paltobop</i>
	-i	<i>nahorlik – nahori</i>

Bu so‘zlarda o‘zbek tilidagi *-lik* qo‘shimchasi o‘zlashma affiks va affiksoidlar vazifasini bajarayotgani, o‘zbek tilining agglyutinativ tabiati ustun kelayotganini ko‘rsatadi. Keyingi o‘rinlarda *-chi*, *-li* qo‘shimchalarining faollashuvi va me‘yorlashuvi jadvallar asosida ko‘rsatib berilgan.

Juft so‘z qismlaridan birining o‘z semantik qiymatini yo‘qotishi o‘z qatlamdagi so‘zlarda ham, o‘zlashma qatlamdagi so‘zlarda ham uchraydi. O‘zbekcha *kiyim-kechak*, *chala-chulpa* kabi so‘zlarda ham shu holat yuz bergan. O‘zlashma so‘zlarda *gap-gashtak*, *kam-ko‘st* kabi juft so‘zlar mavjud bo‘lib, izohli lug‘atda ikkinchi qism alohida so‘zlik qilib berilsa-da, faol qatlamga kirmaydi. *Nom banom*, *lab bolab* kabi o‘zlashmalar, o‘zbek tilida *nomma-nom*, *labolab* kabi shakllarga ko‘chgan.

Grammatik o‘zlashish haqida so‘z ketganda, morfemalarning o‘zaro sinonimligi, polisemantikligi, antonimligi yuzaga kelishida grammatik yoki lug‘aviy morfemalarning emas, yasama so‘zlar ma‘nosi nuqtayi nazaridan kelib chiqish, ya‘ni bunday ma‘noviy munosabatlarni morfemalar emas, leksemalar yuzaga keltirishi haqida ham qarashlar mavjud⁹⁴.

Bobning uchinchi fasli «*So‘z o‘zlashuvida sintaktik qoliplar ko‘chishi*» deb nomlanadi. O‘zbek tilida keng qo‘llanadigan tasnif va tahlilga muhtoj birliklardan biri – murakkab birikmalardir. Bu tushuncha tarkibiga semantik va sintaktik jihatdan bir butun bo‘lgan bir necha birliklar kiritiladi, biroq ularning o‘rtasida farq mavjud. Keyingi yillarda o‘zbek tilining leksik qatlamidan tashqari, grammatik qurilishiga ham ta‘sir qiluvchi bir qancha birliklar kirib keldi.

Ma‘lumki, tillarni tipologik tasniflashda tilning eng o‘zgaruvchi qismi sifatida uning lug‘at qatlami, keyin fonetik va so‘ngra grammatik qurilishlari hisobga olinadi⁹⁵. Tilning lug‘at tarkibi o‘zgarishi tabiiy hodisa hisoblansa, tillarning grammatik qurilishi ta‘siri kam kuzatiladigan jarayonlardan biridir. XX asrda,

⁹⁴ Хожиев А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (20-мақола) // Ўзбек тили ва адабиёти, 3-сон, 2010. – Б.13-18.

⁹⁵ Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б.48-49.

avvalo, rus tili, shuningdek, hozirda ingliz tilining ta'siri tufayli o'zbek tilining grammatik sathida ham sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda.

Keyingi vaqtlarda ingliz tilidagi qisqartmalarni to'g'ridan to'g'ri inglizcha fonetik o'qilishi bilan bog'liq holatlar ko'p (2.3.4-jadval).

2.3.4-jadval

Fonetik talaffuzi bilan qabul qilinayotgan o'zlashma qisqartmalar

№	Yozilishi	O'qilishi	O'zbekcha muqobili
1	IT	AyTi	Informatsion texnologiyalar
2	IQ	AyKyu	Intellectual sifat
3	UNESCO	YUNESKO (hatto qisqartmasi ham bosh harflar bilan)	Birlashgan Millatlar Ta'lim, Fan va Madaniyat tashkiloti
4	WBC	DablyuBiSi	Jahon Boks Kengashi

So'z yasalihi borasida fikr yuritilganda, odatda affiksatsiya (qo'shimcha qo'shish, sintetik) usuli bilan yasalihi o'zbek tilida eng faol ekanligi ko'p qayd etiladi. Shunga qaramay, tilimizning keyingi yillardagi taraqqiyotida kompozitsiya usuli nisbatan faol ekanligi ko'rinmoqda. O'zbek tilshunosligining zamonaviy amaliy muammolaridan biri sifatida so'zlarning chet tilidan to'g'ridan-to'g'ri kalkalash orqali nafaqat shartli terminlar, shuningdek, o'zbek tili tabiatiga mos kelmaydigan grammatik qolipli birliklarni ham ko'rsatishimiz mumkin.

Dissertatsiyada *qo'shma so'z, murakkab so'z birikmasi, frazeologik birlik, frazeologik qo'shilma, frazeologik butunlik, frazeologik chatishma, tasviriy ifoda, kollokatsiya* kabi kabi tushunchalar farqlanadi. Bu birliklarning madaniy, ijtimoiy ta'siri: 1) tarkibli antroponim, toponimlar nomida, jumladan, davlat tashkilotlari va mansablari nomini shakllantirishda; 2) terminologik qatlamda; 3) so'zlashuv nutqida yaqqol namoyon bo'ladi. Kollokatsiyalar lingvomadaniy, kognitologik, tarjimashunoslik, terminologik nuqtayi nazaridan tahlilga tortilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**O'zbek tilidagi o'zlashma so'zlarning semantik o'zgarishlari va ularning leksikografik talqini**» deb atalgan. Bobning birinchi fasli «*O'zlashma qatlam semantikasida yuz beradigan o'zgarishlar*» deb nomlanib, dastlab terminlarning o'zlashmalik, baynalmilallik xususiyatlariga to'xtalib o'tilgan.

O'zbek tili leksikasidagi o'zlashma qatlamning katta qismini terminlar tashkil etadi. XX asr boshlaridan O'rta Osiyoga ilm-fanning yangi yo'nalishlari, texnikaga asoslangan tarmoqlari kirib keldi, natijada ushbu sohalarga oid terminlarning qo'llanish muntazamligi va barqarorligi ortdi. Ham terminologik, ham umumiste'mol leksikadagi qo'llanishlar shakliy va semantik emas, aynan soha kishilarining qandaydir inersiyaviy kelishuvi asosidagi o'zgarishlarga bog'liq. Ayrim olimlar determinologizatsiyani lisoniy ijodkorlikning bir turi sifatida qayd etadilar⁹⁶. Bizningcha, bu nolisoniy omillar sirasiga kiritilgani maqsadga muvofiq.

⁹⁶ Багиян А.Ю., Нерсесян Г.Р., Бжинаева М.В. Детерминологизация как элемент лингвистической креативности: термины-эпонимы в английском научно-популярном дискурсе // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2017 – №6 (72): в 3 ч. Ч.2. – С.61.

Terminlarning til taraqqiyoti uchun qiziqarli jihatlaridan biri ba'zi terminlarning aniq shaxs tomonidan o'ylab topilishidir. Termin yaratish jarayoni nutq ontogenezi singari psixolingvistik tadqiqotlarning doirasiga kiritilishi mumkin. O'zbek tilida terminlarning ma'nodoshlik, variantdorlik xususiyatlari o'zbek tilshunosligida chuqur o'rganilgan⁹⁷. Biroq terminologik tizim doimiy ravishda tadqiq, me'yorlashtirishga muhtoj.

Grammatikalizatsiya jarayoni o'zlashma so'zlar ma'nosi torayishi, biroq qo'llanish shakllarini saqlab qolishini anglatadi. *Baqavli, jumladan, masalan* kabi o'zlashmalarni shu toifaga kiritishimiz mumkin.

Turkiy tilda tana a'zosini bildiruvchi *bag'ir* so'zi o'rniga fors-tojik tilidan *jigar* so'zi qabul qilinadi, ular turli frazeologik birlik va lingvomadaniy birliklarda bir-biri o'rnida qo'llanadi. Masalan, *jigarim* – qarindoshlik, qondoshlik ma'nosida *bovurim* leksemi o'rnida qo'llana boshladi. Keyinchalik so'zlarning semantikasiga ham qo'shimcha ma'no qirralari o'rnashadi: *jigar* – tana a'zosi: *jigari ezilmoq*; *bag'ir* – jigarning tashqi tarafi, quchoq: *bag'ri ezilmoq, bag'riga bosmoq, bag'rini yerga berib yotmoq*.

Tilning muayyan tarixiy davrida o'zlashib, keyinchalik o'z o'rnini boshqa so'zlarga bo'shatib bergan so'zlar ham ko'p uchraydi, jumladan, *da'vo* (teorema), *dejur* (navbatchi), *giperbola* (adabiyotshunoslikda: mubolag'a), *vulkan* (vulqon), *dilxoh* (diltortar), *jumla* (gap), *jabr* (algebra) kabi. Bular qatorida ruscha o'zlashmalar alohida salmoqqa ega. Hozirgi kunda ruscha o'zlashmalar kamayib, o'rniga o'zbekcha so'zlar yoki boshqa tillardagi muqobillar kirib kelmoqda: *dogovor* (shartnoma, kelishuv), *doklad* (ma'ruza), *dokladchi* (ma'ruzachi), *drojji* (achitqi), *zakaz* (buyurtma), *kolonka* (ustun, rukn), *korrespondent* (muxbir), *kraska* (bo'yoq) singari. Ayrimlari esa tushuncha sifatida maishiy hayotdan chiqib ketishi tufayli so'zlar ham tarixiy so'zlarga aylanib bormoqda: *chemodan, pioner, kooperativ* singari.

O'zlashma so'zlar quyidagi shakllarda o'z ma'nolari, tuzilishlarini saqlab qolishga intiladi, ya'ni «tilda yashash tarzi»ni o'zgartiradi:

1. Qo'shma so'z tarkibida qo'llanish orqali.
2. Juft so'zlar tarkibiga ko'chish orqali.
3. Frazeologizmlar, idiomalar tarkibiga ko'chish orqali.
4. Terminologik sathga ko'chish orqali.
5. Uslubiy xoslanish orqali.
6. Diniy leksikaga ko'chish orqali (asosan, arabcha o'zlashmalar).

Shu nuqtayi nazardan so'z o'zlashishining keng ijtimoiy-siyosiy, psixolingvistik, madaniy xususiyatlarini o'rganish maqsadga muvofiq.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli «*O'zbek tilidagi izohli lug'atlarda o'zlashma so'zlar talqini*»ga bag'ishlangan.

Dastlab yangi izohli lug'at asosida amalga oshirilgan statistik tahlil natijalari keltirilgan:

⁹⁷ Ходжаева Д.И. Тилшуносликда терминларнинг лексикографик таҳлили: Филол. фанл. б. фалс. доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2018. – 129 б.

O‘zbek tilidagi so‘zlarning etimologik jihatdan statistik tahlili

Bosh so‘zliklar soni	O‘zbekcha so‘zlar	Arabcha so‘zlar	Forscha so‘zlar	Ruscha so‘zlar	Yevropa tillaridan	Boshqa tillardan
O‘z qatlam so‘zlar nisbati	66 %	11%	8%	0,7 %	12%	6 %

Keyingi o‘rinlarda etimologik ma’lumotlar asosida o‘zlashma so‘zlarning asliyati va bugungi faol ma’nosi o‘rtasida metonimiya, metafora va sinekdoxa asosida ma’no ko‘chishi yuz berishi misollar bilan dalillangan.

O‘zbek tilidagi *ayol*, *oila* so‘zlari arab tilidagi *’ala* (عَال) fe’lidan kelib chiqqan. Mazkur fe’l «kambag‘al (nochor) bo‘lmoq», «katta oilali», «(oilani) boqmoq, ta’minlamoq» (An-Na’im, 578) ma’nolarini ifodalaydi. *’a:laning* turli hosila shakllari «kambag‘al», «boqindi», «oila», «oila a’zolari» kabi semalarni ifodalaydi. *Oila* shaklining mazmun mundarijasi arab va o‘zbek tillarida bir xil. Har ikki tilda ham «ijtimoiy ta’minga muhtoj» integral semasi mavjud. *Ayol* shakli arab tilida yo‘q (bizning manbaga ko‘ra). Biz *ayol* so‘zi uchun *iyol* shaklini etimologik asos deb hisoblaymiz. Zero, arabcha *’ayn* (ع) harfi o‘zbek tili talaffuz qonuniyatlariga mos kelmaydi. Shu tufayli ع (ayn)dan keyingi i tovushi a tarzida o‘qiladi (qiyos. *’iyd* – hayit, *’iyon* – ayon). *Iyol* shakli esa arab tilida «bola», «farzand» ma’nolarini ifodalash uchun ishlatiladi. Eski turkiy tilda ham *ayol* so‘zi «farzand» ma’nosida uchraydi: «*O‘g‘ul juvonmard. Aning uchunki, ota o‘g‘uldin kechti, o‘g‘ul jondin kechti. Jon ayoldin azizroq turur*»⁹⁸. Shuningdek, Sharq xalqlari uchun mushtarak muhim madaniy belgilardan biri – oila a’zolarining ismini, hattoki uni atovchi so‘zni yashirish *ayol* so‘zi qo‘llanishida kuzatiladi. Chunonchi, o‘zbek xalqida andisha yuzasidan *xotin* o‘rnida *zavja*, *rafiqa*, *zaifa*, *turmush o‘rtoq*, *kelin*, *yanga*, *bolalar*, *uydagilar* kabi so‘zlarning ishlatilishi sir emas. Hozirgi o‘zbek tilidagi *ayolmand* so‘zida *ayol* leksemasining «bola», «farzand» semalari to‘la o‘zlashgan: «oilali, bola-chaqali», «bola-chaqasi ko‘p»⁹⁹. So‘z erkak jinsiga mansub shaxs belgisini bildiradi. Demak, *ayol* so‘zining etimologiyasida «farzand» ma’nosi yetakchi.

Ayrim o‘zlashmalar o‘zlashgan sohasi doirasidagina tirik bo‘ladi, jumladan yil (muchal) nomlarini bildiruvchi *baqar* (sigir), *mush* (sichqon), *asp* (ot), *sunbula* (boshqoq) kabi so‘zlar vaqt bildiruvchi so‘zlar doirasidagina mavjud, umumiste’molda o‘z etimologik ma’nosida qo‘llanmaydi. Shu kabi shaxmat terminologiyasidagi *asp*, *farzin*, *rux* kabilar ham termin sifatida tor doirada qo‘llanadi.

Uchinchi bobning navbatdagi fasli «*Izohli lug‘atlarda diniy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar talqini*» deb nomlangan. Ijtimoiy tuzum va taraqqiyot tilga ta’sir etib, so‘zlar miqdori va semantik tarkibi bilan birga ularga ijtimoiy munosabat doirasini ham o‘zgartiradi. Sobiq ittifoq davrida ilm-fan darvinizm ta’limoti va ateistik mafkuraga bo‘ysundirilgani bois, bu mafkuraning g‘oyalari har bir satrda ufurib turishi shart qilib qo‘yilgan edi. Mazkur tarixiy sharoitda dinning

⁹⁸ Рабғузий Н.Б. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б.80.

⁹⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 1-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2016. – Б.43.

jamiyat hayotidagi o'zni keskin rad etilgan, bu mavzudagi so'zlarni iloji boricha eskirgan so'zlar qatoriga kiritish yoki ularning izohiga biryoqlama yondashuv holatlari kuzatiladi.

«Islom» spravochnigining qayta ishlangan va to'ldirilgan uchinchi nashrini tayyorlash jarayonida ... ilgari maqolalarning ba'zilari qayta ishlandi, xususan, xalqimiz orasida hozir ham namoyon bo'layotgan islom ta'siri, ularni bartaraf etish va ilmiy ateistik tarbiya ishini yanada takomillashtirishga kengroq o'rin berildi»¹⁰⁰. O'zbek tilining diniy leksikasi J.Omonturdiyev¹⁰¹, M.Umarxo'jayev¹⁰², N.Uluqov¹⁰³, Sh.Maxmaraimova¹⁰⁴, D.Rashidova¹⁰⁵, Sh.Amanturdiyeva¹⁰⁶, Sh.Yusupova¹⁰⁷, N.Ismoilova¹⁰⁸ va boshqalar¹⁰⁹ tomonidan chuqur o'rganilgan.

Mazkur guruhdagi so'zlar semantikasi hamda ularning leksikografik talqinini solishtirish insonning til birliklari mazmun-mundariyasi va kognitsiyasini o'zgartirishga bo'lgan harakatlarining yorqin namunasi sifatida ko'zga tashlanadi. Biz buni ikki jildli va yangi izohli lug'atlar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Diniy tushuncha ifodalovchi so'zlar quyidagi mavzuviy guruhlarga bo'lib tahlil qilingan: 1) shaxsni bildiruvchi so'zlar; 2) yo'nalish, oqimni bildiruvchi so'zlar; 3) faoliyat va jarayonni bildiruvchi so'zlar; 4) maxluqot, yaralmishni bildiruvchi so'zlar; 5) narsa-buyumni bildiruvchi so'zlar; 6) joy, darajani bildiruvchi so'zlar; 7) diniy kategoriyalarni bildiruvchi so'zlar. Jumladan, shaxsni bildiruvchi so'zlar jumlasiga *anbiyo, valiy, voiz, dindor, domla, domulla, zohid, imom, imomcha, missioner, muslim, mutavalli, mo'min* kabilar kiritildi. Shuningdek, *mavlono, mankuha, mardud, marhum, mahram, gado, darvesh, devona, ziyoratchi, murtad, mutaassib* kabi so'zlar ham «dinga munosabat» semasi vositasida mazkur guruhga kiradi.

¹⁰⁰ Умархўжаев М. Ўзбек тилининг диний атамалари луғати қачон тузилади? // Манба: <https://e-adabiyot.uz/maqola/1219>

¹⁰¹ Омонтурдиев Ж. Маърифатнома. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2013; Омонтурдиев Ж., Омонтурдиев А. Маърифий-ирфоний истилохлар изоҳли луғати. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014.

¹⁰² <https://e-adabiyot.uz/maqola/1219>

¹⁰³ Улуқов Н.М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол. фанл. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 1997.

¹⁰⁴ Махмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. – Тошкент: Чўлпон, 2018. – 100 б.; Махмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. – Тошкент: Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018 va boshq.

¹⁰⁵ Rashidova D.K. The Features of Religious Text as the Type of Religious Discourse and Classification of its Lexicon. // O'zbekistonda xorijiy tillar. – 2024. – 10-jild. – № 1. – P.28-38.

¹⁰⁶ Амонтурдыева Ш. Ўзбек диний матнининг функционал тадқиқи: Филол. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD) ...дисс. – Термиз, 2020. – 160 б.; Amonturdiyeva S. Diniy matnlarga xos leksik xususiyatlar, uning boshqa funksional uslubga xos matnlar bilan o'xshash va farqli jihatlari // Farg'ona davlat universiteti Ilmiy xabarлари, 2023, 29(2), 125. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a125.

¹⁰⁷ Юсупова Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. ... автореф. – Фарғона, 2021. – 52 б.

¹⁰⁷ <https://e-adabiyot.uz/maqola/1219>

¹⁰⁸ Ismoilova N. Qur'oni Karim tafsiridagi o'xshatishlarning lingvistik xususiyatlari (Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Tafsiri Hilol" asari misolida): Filol. fanl. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ...diss. avtoref. – Qo'qon, 2023 – B.15.

¹⁰⁹ Юлдашев Т. Навоий ва Бобурнинг ислом фарзларига бағишланган асарларида қўлланган шаръий атамаларнинг лисоний таҳлили: Филол. фанл. номз. ... дисс.автореф. – Тошкент, 2003. –23 б.; Умархўжа М. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. – Тошкент, 2016. –220 б.; Султонова Ш. Муқаддас матнларда замон категориясининг лингвомаданий хусусиятлари. Филол. фанл. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 55 б.; Галиева М. Дунёнинг лисоний тасвирида диний-мифологик тафаккурнинг акс этиши: Филол. фанл. докт. ... (DSc) дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – 79 б.

Yangi izohli lugʻatda diniy tushunchalarni bildiruvchi bir qancha soʻzlarning izohlari birmuncha aniqlashgan, uning belgilarini bildiruvchi misol hamda izohlar bilan toʻldirilganligi koʻrsatiladi.

Dissertatsiyaning toʻrtinchi bobi «**Soʻz oʻzlashuvining ijtimoiy va madaniy xususiyatlari**» deb nomlangan. Bobning dastlabki fasli «*Oʻzlashmalarning sotsiolingvistik talqini*»ga bagʻishlangan.

Oʻzbek tilshunosligida sotsiolingvistik tadqiqotlar tor doirada – kasb-hunar leksikasi doirasida olib borilgan¹¹⁰. Keyingi yillarda ayrim ishlarda bilvosita masalalar yoritilayotgan boʻlsa¹¹¹, bevosita sotsiolingvistik muammolar bilan bogʻliq ishlar ham yuzaga kelmoqda¹¹².

Shoʻro voqeligi davrida til sohasidagi jarayonlar quyidagi holatlarda koʻrinadi: 1) til lugʻat boyligining ideologizatsiyasi; 2) shevaga xos soʻzlarning cheklanishi; 3) oʻzbek madaniyati va tarixga yot terminologiya singdirilishi.

Istiqlol davri oʻzbek tili lugʻat tarkibi birmuncha oʻzgarishlarga uchradi. Aynan hozirgi kunda soʻzning oʻzidan koʻra u bilan bogʻliq qoliqlar kirib kelmoqda. Narsaning nomini yakka soʻz bilan atamay soʻz birikmasi, termin elementli ifodalar bilan berish faollashdi: *nogiron – nogironligi mavjud shaxs*.

Mazkur variantlar huquqiy va tibbiy jihatdan tasdiqlangan boʻlib, qoliqlar Yevropa tillaridan kirgan. Bunda jahondagi Inson huquqlari tashkilotlari bilan aloqalarning natijalari koʻrinadi.

Sotsiolektlar turli oʻrinlarda turlicha maʼno kasb etar ekan, soʻzlovchining ham turli oʻrinlarda nutqini oʻzgartira olish imkoniyati borligini esdan chiqarmasligimiz kerak. Zero, tildan xabari bor odam turli uslubiy vositalardan foydalanib, (garchi sunʼiy boʻlsa-da) oʻzining boshqa guruhga mansub inson sifatida koʻrsata olishi mumkin. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, makon va zamonning shunday qobiqlari mavjudki, bu qobiq ichida soʻz ham, soʻzlovchi ham oʻz «qiyofa»sini oʻzgartiradi. Masalan: *nard(a)*, *vishka*, *pas kabilar*.

¹¹⁰ Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. I (кулолчилик, тандирчилик ва сувоқчиликка оид). – Тошкент: Фан, 1956; Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. II-III. – Тошкент: Фан, 1959; Дадаханова Т. Лексика вышивального искусства в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Ташкент, 1963; Нугманов Т. Термины бахчеводства в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Ташкент, 1971; Дадабоев Х. Военная лексика в староузбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981; Икрамова Н. Узбекская кулинарная лексика. – Ташкент, 1989; Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент: А. Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2004 ва бошқ.

